

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 811.512.133:81-373:39

SHOYIMQULOVA ZARNIGOR SOATMUROD QIZINING

SURXONDARYO DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK
ETNOGRAFIYALARINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

70230101 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) N.R.Amonturdiyev

Termiz – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvardagi №2-T/M-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.f.d. (PhD) N.R.Amonturdiyev**

Kafedra mudiri: _____ **f.f.f.d. (PhD) N.R.Amonturdiyev**

Magistratura bo'limi boshlig'i: _____ **p.f.f.d. (PhD) Narbayev A.**

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Shoyimqulova Zarnigor Soatmurod qizining “Surxondaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarining leksik-semantik tadqiqi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

ANNOTATSIYA

Tadqiqot obyektlari: Surxondaryo vohasi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlar tanlab olindi.

Ishning maqsadi: Surxondaryo vohasidagi dehqonchilik va chorvachilikga oid etnografizmlarning semantik xususiyatlarini yoritish. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilshunosligida etnolingvistika, lingvokulturologiya sohalari doirasida yangi tadqiqotlar yaratilishi uchun ilmiy-nazariy manba vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Ishda foydalanilgan tadqiqot usullari va o‘rganilgan til vositalariga asoslangan holda o‘zbek tilining hududiy leksikasini, kam iste‘mol so‘zlarini to‘plash, lug‘aviy-ma‘naviy jihatdan tahlil qilish va lug‘atini tuzish ishlarini amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot metodlari: Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, differensial-semantik, diaxron, sinxron tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- etnografizmlarning millatga xos milliy ma‘naviyatni eks ettiruvchi til tizimining tarkibiy qismi ekanligi, Surxondaryo vohasi misolida hududiy jihatlari, xalqning milliy madaniyati, turmush tarzining ifodalanishi dehqonchilik va chorvachilik leksikasi orqali asoslangan;

- Surxondaryo vohasi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlarning boshqa hududlarda mavjud bo‘lgan ma‘no ifodalovchi etnografizmlar bilan o‘xshashligi va dialektal etnografik (hududiy) jihatdan farqli tomonlari dalillangan;

- dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlar lingvomadaniy ma‘no-mazmun ifodalashiga ko‘ra stereotipik xarakter va

madaniyatni o'zida namoyon qiluvchi lingvistik tushuncha sifatida lingvomadaniy birlik ekanligi asoslangan;

- dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografik paramiologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi va semantik xususiyatlari tahlil etilgan.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'limda hozirgi o'zbek adabiy tili, lingvokulturologiya, semasiologiya, etnografiya kabi fanlarni o'qitish, shu fanlarga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda tadqiqot natijalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiq etish darajasi: Tadqiqot natijalaridan etnolingvistika, leksikografiya, lingvokulturologiya fanlarini o'qitish va tadqiq etish jarayonlarida, shuningdek "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanlarini o'qitishda ham keng foydalanish mumkin.

Qo'llanish sohasi: Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim maktablari.

ANNOTATION

Key words: ethnolinguistics, ethnolexics, ethnography, appropriation ethnolexemes, ethnomadanic traditions

Objects of research: Ethnography related to agriculture and livestock of surkhandarya Oasis was selected.

The purpose of the work: to highlight the semantic features of ethnographies related to agriculture and animal husbandry in the surkhandarya Oasis. The scientific significance of the research results is determined by the fact that in Uzbek linguistics it acts as a scientific and theoretical resource for the creation of new research within the fields of ethnolinguistics, linguoculturology. Based on the research methods used in the work and the language tools studied, it is possible to carry out the work of compiling the territorial lexicon of the Uzbek language, the words of low consumption, analyzing and compiling a dictionary-spiritually.

Research methods: methods of description, classification, comparison, differential-semantic, diachronic, synchronous analysis were used in the coverage of the topic

The results obtained and their novelty:

- the fact that ethnographers are a component of a language system that exerts national spirituality inherent in the nation, territorial aspects on the example of the surkhandarya Oasis, the national culture of the people, the expression of their way of life are based through the lexicon of Agriculture and livestock;

- Surkhandarya Oasis the similarity of ethnographies related to agriculture and animal husbandry with ethnographies expressing meaning present in other regions and dialectal ethnographic (territorial) differences have been demonstrated;

-it is based on the fact that ethnographies related to agriculture and animal husbandry are a linguistic unit as a linguistic concept that manifests a stereotypical character and culture in itself, according to the expression of linguistic meaning and content;

- linguistic study and semantic features of ethnographic paramiological units on agriculture and livestock are analyzed.

Practical significance: the practical significance of research results in higher education the current Uzbek literary language, teaching subjects such as linguoculturology, semasiology, ethnography, the study results can be used in the preparation of textbooks and manuals on the same subjects.

Implementation level: the results of the study can also be widely used in the processes of teaching and research of ethnolinguistics, lexicography, linguoculturology, as well as in the teaching of the subjects of the “current Uzbek literary language”.

Field of application: schools of Higher Education and general secondary education.

**SURXONDARYO DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK
ETNOGRAFIK LEMSIK-SEMANTI
TADQIQI**

KIRISH (annotatsiya).....	7
I BOB. ETNOGRAFIK LEMSIK LARNING O‘ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA TADQIQ ETILISHI	
1.1. Jahon va o‘zbek tilshunosligida etnoleksika tadqiqi.....	14
1.2. Surxondaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik tadqiqi.....	27
Bob bo‘yicha xulosalar	
II BOB. SURXONDARYO DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK DIALEKTAL ETNOGRAFIK LARINING TEMATI, ETIMOLOGIK TADQIQI	
2.1 Dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarining tematik tasnifi.....	47
2.2 Dehqonchilik va chorvachilikka oid dialektal etnografizmlarning etimologik tasnifi.....	53
Bob bo‘yicha xulosalar	
III BOB. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIKKA OID ETNOGRAFIK PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI	
3.1. Dehqonchilik va chorvachilikka oid frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	67
3.2. Dehqonchilik va chorvachilikka oid maqollarning semantik tahlili.....	72
Bob bo‘yicha xulosalar	
UMUMIY XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	85

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon madaniy hayotida har qanday millatda o'z milliy an'analari, hayot tarzi bilan bog'liq qadimiy qadriyat va urf-odatlarini saqlab qolish, milliy umrboqiyiligini ta'minlashda eng muhim vosita, eng samarali qurol til ekanligi anglab yetildi. Til tadqiqiga shu xildagi yondashuvlar natijasida XX asr o'rtalarida tilshunoslikning tadqiqot yo'nalishlari kengayib, etnolingvistika, lingvokulturologiya, antropotsentrik tahlil kabi tilshunoslikning yangi sohalari maydonga keldi va tilning inson omili bilan bog'liq bo'lgan yangi jihatlarini ochib berish imkoniyatlari yaratildi. Natijada til va shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, kundalik hayoti davomida shakllangan an'anaviy madaniyati, ma'naviy olamini uzviy aloqadorlikda o'rganish tilshunoslikdagi muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Dunyo tilshunosligida til vositalariga har bir xalqning urf-odatlarini va an'analarini aks ettiruvchi, milliy o'zligini anglatuvchi, ma'naviyatini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Ma'lumki, har bir milliy tilning o'ziga xos takrorlanmas ma'no va mazmunga ega bo'lgan lug'aviy birliklari mavjud bo'lib, uni xalq madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, o'ziga xos tafakkur tarzi hamda milliy-tarixiy an'analari bilan bog'liq ravishda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi va mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida ham so'nggi yillarda "Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim"¹ ligi anglanib, tilning milliy madaniyat bilan aloqasini tushuntiruvchi lingvokulturologiya sohasida samarali ishlar olib borildi. Bu borada etnosning moddiy-ma'naviy tamaddunida aks

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва макеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //хттп://лех.уз/досс/4561730

etgan milliy ong, tarixiy tajriba, dunyoqarash, tafakkur, milliy mental xoslanishni namoyon etuvchi etnografik birliklarning etnolingvistik, etnoleksikografik tadqiqi doirasida ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analarini va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"². Har bir xalq umumiy belgilarga ega bo'lganidek, o'ziga xos jihatlari ham mavjud bo'lib, bunday o'ziga xosliklar muayyan xalqning urf-odatlarini hisoblanadi. Urf-odatlar ma'lum etnosning etnografik jihatdan o'ziga xosligini belgilovchi muhim tomoni bo'lib, ularning til vositalari orqali ifodalanishi tilshunoslik uchun ham etnografiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o'zining etnografik leksikasiga ega bo'lib, ularni to'plash, lingvistik jihatdan tadqiq qilib, til vositasi sifatida avloddan avlodga yetkazish ko'pgina lingvistik muammolarni yechilishi uchun imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ta'lim va fanning barcha sohalarida axborot texnologiyalarini joriy etish haqidagi takliflari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 29 б

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6084-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida til va madaniyat aloqalariga doir qarashlar dastlab antropologik tadqiqotlar zahirida shakllangan (*amerikalik antropolog F.Boas va uning izdoshlari E.Sepir, B.Uorf*). Yevropada esa bu masala V. fon Gumboldt, Y.L.Vaysgerber, N.I.Tolstoy, D.K.Zelenin, A.A.Potebnya, V.Teliya, Ye.F.Karskiy, A.A.Shaxmatov, A.N.Afanasev, A.I.Sobolevskiy tomonidan rivojlantirildi. Amerika tilshunosligidan farqli o‘laroq, Yevropa tilshunosligida etnolingvistika fanning alohida sohasi sifatida jadal rivojlandi. Xususan, slavyan³ va rusiyzabon xalqlardan kuban⁴, boshqird⁵, tatar⁶, buryat⁷, qorachoy-bolqar⁸, chuvash⁹, mari, udmurt va boshqa tillar etnoleksikasiga doir etnolingvistik, etnoleksikografik aspektdagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Turkologiya olamida ozarbayjon tilining maxsus etnografik terminlar lug‘ati yaratilgan bo‘lsa¹⁰, qozoq tilshunosligida ham bu borada ahamiyatga molik ilmiy izlanishlar olib borildi¹¹. O‘zbek

³ Славянские древности: этнолингвистический словарь: в 5 т.// под ред. Н.И.Толстого. – Москва, Международные отношения, 1995–2012.; Плотникова А.А. Этнолингвистический словарь как лингвистически, этнографический и фольклорный источник (на материале славянских языков и традиции). Дисс. на соискание учёной степени кан. фил. наук. – Москва, 1990

⁴ Финко О. С. Лексика свадебного обряда Кубани (на материале обрядовой практики станицы Черноерковской Краснодарского края). Автореф. дис. кан. фил. наук. – Курск, 2011.

⁵ Багаутдинова М.И. Этнографическая лексика башкирского языка. – Уфа: РИО РУНМЦ, 2002. – С. 11; Ишбердин Э.Ф. Названия животных и птиц в башкирских говорах. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1970; Самситова Л.Х. Безэквивалентная лексика башкирского языка. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1999.

⁶ Этнография татарского народа. – Казан, Магариф, 2004. - С. 287; Татар теленең диалектологик сүзлеге. – Казан, Тат. кит. нәшр., 1993.

⁷ Дондокова Д.Д. Лексика духовной культуры бурят. – Улан-Удэ, 2003; Манжигеев И.А. Бурятские шаманистические и дошаманистические термины. – Москва, Наука, 1978

⁸ Аппоев А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка. Дисс. кан. фил. наук. – Налчик, 2003; Семенова И.Дж. Параметрический анализ лексики карачаево-балкарского языка на тюркском фоне. Дисс. кан. фил. наук. – Воронеж, 2017

⁹ Дегтярев Г.А. Лексика земледелия в чувашском языке. – Москва, 1987

¹⁰ Азербайджанча-русча этнография терминлари луг‘ати. – Баку, 1987

¹¹ Шамшатов А. Лексика знаковых культур в казахском языке. Дис. канд. фил. наук. – Алма-Ата, 1966; Жанпейсов Е.Н. Қозоқ тилининг этник-маданий луг‘ати. – Алма-Ата, 1983; Жилкубаева А.Ш. Термины питания в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1991.

tilshunosligida milliy urf-odat, an'ana va marosimlar leksikasi dialektologik lug'at va tadqiqotlar zahirida tekshirilgan. Etnografizmlar dialekt, ya'ni shevaning tarkibiy qismi sifatida o'rganildi. O'zbek tili milliy an'ana va urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy madaniyati leksikasi maxsus etnografik planda N.Mirzayevning dissertatsiyasida o'z aksini topdi¹². Ushbu tadqiqot ma'lum hudud doirasida amalga oshirilgan bo'lsa-da, sohaga doir bir qator yangi tadqiqotlar uchun asos bo'la oldi¹³. O'zbek tilining o'zga tillar bilan integratsiyasi, qolaversa, fan-texnika taraqqiyoti natijasida qo'llanish doirasi torayib borayotgan yoki butkul yo'qolib ketish arafasida turgan kasb-hunar etnoleksikasi deyarli lug'atlashtirilmagan, mazkur lug'aviy birliklarni tizimlashtirishning leksikografik jihatdan ilmiy-nazariy asoslari yaratilmagan¹⁴. Shu asosda dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarining leksik-semantik tadqiq etish, ularni zamonaviy tilshunoslik tamoyillari asosida, xususan, etnolingvistik jihatdan tahlil va tavsif qilish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo vohasidagi dehqonchilik va chorvachilikga oid etnografizmlarning semantik xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning vazifalari:

- etnografizmlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganishga oid tadqiqotlarni tahlil qilish va sharhlash;
- dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq etnografizmlar va ularga yondosh til birliklarini aniqlash;

¹² Mirzaev N. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Фил.фан.канд.дисс. – Тошкент, 197

¹³ Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1997., 74 б.; Қахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 2009., 22-б.; Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Тошкент, 2018. 15-б.; Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоклари этнографизмларининг лингвимаданий таҳлили. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Нукус, 2018

¹⁴ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021, 5 бет

- dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografizmlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini badiiy asarlardan olingan materiallar asosida ilmiy talqini va tahlilini keltirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo vohasi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq etnografizmlar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti Surxondaryo vohasidagi dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil etish.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- etnografizmlarning millatga xos milliy ma'naviyatni eks ettiruvchi til tizimining tarkibiy qismi ekanligi, Surxondaryo vohasi misolida hududiy jihatlari, xalqning milliy madaniyati, turmush tarzining ifodalanishi dehqonchilik va chorvachilik leksikasi orqali asoslangan;

- Surxondaryo vohasi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq etnografizmlarning boshqa hududlarda mavjud bo'lgan ma'no ifodalovchi etnografizmlar bilan o'xshashligi va dialektal etnografik (hududiy) jihatdan farqli tomonlari dalillangan;

- dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq etnografizmlar lingvomadaniy ma'no-mazmun ifodalashiga ko'ra stereotipik xarakter va madaniyatni o'zida namoyon qiluvchi lingvistik tushuncha sifatida lingvomadaniy birlik ekanligi asoslangan;

- dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografik paramiologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi va semantik xususiyatlari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilshunosligida etnolingvistika, lingvokulturologiya sohalari doirasida yangi tadqiqotlar yaratilishi uchun ilmiy-nazariy manba vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Ishda foydalanilgan tadqiqot usullari va o'rganilgan til vositalariga asoslangan holda o'zbek tilining

hududiy leksikasini, kam iste'mol so'zlarini to'plash, lug'aviy-ma'naviy jihatdan tahlil qilish va lug'atini tuzish ishlarini amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'limda hozirgi o'zbek adabiy tili, lingvokulturologiya, semasiologiya, etnografiya kabi fanlarni o'qitish, shu fanlarga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda tadqiqot natijalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: O'zbek tilshunosligida sof etnografizmlar tadqiqi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar uncha ko'p emas. Shulardan dastlabkisi N.Mirzayevning Qashqadaryo viloyati etnografizmlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishidir. Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 70-yillarida yaratilgan mazkur ilmiy ish va olim tomonidan yaratilgan lug'at anchayin salmoqli hamda keyingi shu sohaga oid izlanishlar uchun o'ziga xos metodologiya vazifasini o'tamoqda. O'zbek tilshunosligida etnografizmlarni ilk marta sistem metodda tadqiq etgan olim M.Qahharovadir. Uning uch bobdan iborat dissertatsiyani birinchi bobi "Etnografizmlarning til sistemasidagi o'rni" deb nomlanib, mazkur bobda o'zbek tilshunosligida til sistemasining maydon sifatidagi o'rganilish darajasi, etnografik leksika til sistemasining tarkibiy qismi sifatida, etnografizm maydoni haqida kabi mavzular keng yoritilgan. Xususan, o'zbek shevalarini keng sathda o'rganish borasida o'zbek dialektolog olimlarining xizmatlari salmoqlidir. Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, F.Abdullayev va yana boshqa o'nlab olimlar o'z tadqiqotlarida shevalar bilan birga etnografik leksemalarga ham alohida e'tibor qaratganlar.

Yana bir etnografizmlarni tadqiqiga bag'ishlangan muhim ishlardan biri bu N.Amonturdiyevning "Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari" nomli dissertatsiya ishi hisoblanadi. Ilmiy ishda asosan Surxondaryo aholisi nutqida uchraydigan etnografik birliklar lug'atda berilishining nazariy asoslarini takomillashtirish va "O'zbek tilining izohli lug'ati"da etnoleksika ko'lamini kengaytirish maqsad qilib olingan. Tadqiqot ishining III bobida "Surxon etnografik mavzuiy izohli lug'ati"ni tuzish va unda

etnografizmlarni berish masalasi ilgari suriladi. Bobda dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlari kichik tematikaga bo‘linib, dehqonchilikka va chorvachilikka oid etnografizmlar sanab o‘tiladi. Etnografizmlarni o‘rganish ishlari davom ettirilib, soha rivoji takomillashdi. N.Kurbonazarovanning “Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiya ishi ham Surxondaryo vohasi etnografizmlarining o‘rganilishida muhim ishlardan biri bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 1 ta xorijiy 4 ta xalqaro va respublika jurnallarida maqolalar va 1 ta tezis chop qilingan.

Dissertatsiya ishining tuzilmasining tavsifi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda 91 sahifani tashkil etadi.

I BOB. ETNOGRAFIZMLARNING O'ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA TADQIQ ETILISHI

1.1. O'zbek va jahon tilshunosligida etnoleksika tadqiqi

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan chuqur ildizga ega turmush tarzi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan bog'liq so'z, atamalar, turli paremiologik birliklar adabiy tilimizga nisbatan dialektal birliklar sirasida saqlanib qolgan yoki mavjud bo'lgan. Bunday birliklar haqli ravishda ko'plab ijtimoiy fanlar mutaxassisleri e'tiborini tortgan. Jahondagi barcha xalqlarning, etnik birliklarning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar teng holda o'zaro tafovuti yoki umumiyliigi va o'xshashligini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi maxsus fan sohasi etnografiya fani lingvistika, xususan, dialektologiya bilan juda yaqin aloqada bo'lishi tabiiy holdir. Chunki biror xalqning turmushi, urf-odati, madaniyati, eng avvalo, tildagi so'zlarda, ma'lum bir hududda yashayotgan sheva, dialekt vakillarining nutqida o'z aksini topadi.

Tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida til bilan etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika yo'nalishi vujudga keldi. Sohaning o'rganish obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari xususida manbalarda quyidagicha fikrlar bildirilgan:

Etnolingvistika – makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarini, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'limi¹⁵. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Tariximiz kabi, qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu tabiiy hol, chunki hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat

¹⁵ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЕ, 2002. 32-6

bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi"¹⁶.

Etno... (*yun. ethnos – qabila, elat, xalq*) — o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi; elat, xalq va ularga oidlik ma'nolarini bildiradi (*etnogenez, etnografiya kabi*).

Etnolingvistika (*etno... va lingvistika*) — tilshunoslikning til va til egasi bo'lgan xalq orasidagi bog'liqlik hamda munosabatlarni, til rivoji, vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi sohasi. Til bilan etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri ikki tomonlama bo'ladi:

- etnik omillar (*etnosning urf-odatlarini, milliy an'analari, falsafiy, diniy qarashlari va h.k.*)ning tip rivojiga ta'siri;

- til vazifaviy imkoniyatlarining etnos va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'siri.

Etnolingvistika til va uning rivojiga turli etnik guruhlarining qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Tilshunoslikning etnik onomastika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari etnolingvistikadan olingan natijalar orqali o'ranilib, tadqiq etilmoqda. Etnolingvistika ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillaridagi etnik xususiyatlari bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda qo'l keladi¹⁷.

Etnolingvistika mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida XIX asrning 70-yillarida Shimoliy, keyinroq Markaziy Amerikadagi hindu qabilalarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi bilan vujudga kela boshladi.

¹⁶ И.А Каримов. Тарихий хотирасиз келажак ёқ. Мулоқат журн.1998, – №5. 1-166. .

¹⁷ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. И.Ғаниев. 10-жилд.– Тошкент: ЎзМЕ, 2005. –285-б.

Lekin mazkur yo'nalishning ilk davrida ko'proq etnografiya masalalariga e'tibor qaratildi, faqat asrimizning 20-yillarida lingvistik tomonlama tadqiq etila boshladi.

Etnolingvistikaning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi va etnografi F.Boas va uning o'quvchilarining tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tilshunoslikda etnolingvistikaga oid qarashlar, ya'ni til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalari bilan dastlab Yevropa va rus tilshunoslari V.fon Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.Potebnya, A.Shaxmatov, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.Serebrennikov, L.Shcherba, Yu.Stepanov, I.Galperin, N.Karaulov, N.Jinkin, A.Leontev, J.Lakoff, T.van Deyk, A.Vejbitskaya, E.Kubryakova, E.Rosh, V.Belyanin, V.Demyankov, V.Maslova, T.Dridze, K.Sedov, o'zbek tilshunoslari A.Nurmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, S.Mo'minov, Sh.Safarovlar tadqiq ishlarini olib borishdi.

XX asrning oxiri XXI asr boshlarida Amerika tilshunoslari D.Xayms o'z asarlari¹⁸ orqali etnografiya va tilshunoslikning o'zaro aloqalarini o'rgandi. Tilshunos olimning bu qarashlari Buyuk Britaniyada etnolingvistikaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada P.Atkinson, R.Bauman, J.Gampers, Barton, Hamilton, Japp, Rempton, Roberts, Martin-Jonas, Bernstein, Saksona va boshqa ko'plab olimlar etnografik lingvistika hamda unga o'zaro aloqada bo'lgan sohalar bo'yicha ilmiy o'rganishlar olib borishdi. Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish etnolingvistikaning asosiy maqsadidir¹⁹.

Etnolingvistikaning yuzaga kelishi haqida fikr bildirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini

¹⁸ Haymes, D. Language in education: ethnolinguistic essays. Washington, 1980. DC: Center for Applied Linguistics; Hymes, D. Yethnography, Linguistics, Narrative Inequality. 1996; Hymes, D. "In vain I tried to tell you": essays in Native American yethnopoetics. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981; Hymes (eds) Directions in Sociolinguistics: The ethnography of Communication.

¹⁹ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. – 137 б.

ta'kidlaydilar va bu ta'limot Amerika olimlarigacha davom etib boradi²⁰. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyayn, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi²¹. Etnolingvistika sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 qismga bo'ladi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (*V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari*);

2) etnolingvistikaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) etnolingvistikaning rivojlanish bosqichi²².

G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Etnolingvistika inson omiliga, aniqrog'i, insondagi tarixiy madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Etnolingvistika markazining xalq o'tmishi va madaniyati fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi"²³. Etnolingvistikaning o'rganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.Teliyaning qayd etishiga ko'ra, etnolingvistika til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganib, tadqiq qiladi. V.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb fikr bildiradi. Shuningdek, V.Teliya etnolingvistika obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi²⁴.

²⁰ Қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. 23-40 б; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи ёллариини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон.3-16 б.

²¹ Қаранг: Маслова В.В. Лингвокултурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Махмудов Н. Коърсатилган макола. 3-16 б.

²² Маслова В.А. Лингвокултурология: Учебное пособие. – М.: Асадемия, 2001. – 208

²³ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Асадемия, 2000. – С. 128.

²⁴ Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратева О.Н. Концептуалные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176.

Hozirgi paytda etnolingvistika jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yonalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar borki, ular etnolingvistika rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi²⁵. Ushbu o'quv qo'llanmada etnolingvistika lingvokulturologiya bilan birgalikda tadqiq etiladi. Muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan²⁶. Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) etnolingvistikaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Etnolingvistika A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida shunday ta'rif beriladi: "Etnolingvistika - makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'limi"²⁷.

Etnolingvistikada xalq hayoti bilan bog'liq urf-odat, marosim va rasm-rusum va atamalarni M.S.Yangelova singari bir-biriga ma'nodosh, sinonim deb e'tirof etish bir qancha xatoliklarni keltirib chiqaradi. Negaki, bu atamalar mohiyatan xalq moddiy va ma'naviy, madaniy hayoti bilan bog'liq hodisalarga nisbatan ishlatilsa-da, bir-biridan buni qanday tarzda, qay usulda va qancha miqdorda ifodalab kelishiga ko'ra farqlarini inkor qilish birmuncha qiyin. Etnografik leksikani: a) moddiy-madaniy terminlar guruhi; b) ma'naviy-

²⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. -с. 208

²⁶ Маслова В.А. Кўрсатилган ўқув қўлланма. -с. 210

²⁷ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЕ, 2002. 178-б.

madaniy terminlar guruhi ko'rinishida ikkita leksik-semantik guruhga ajratsak maqsadga muvofiq.²⁸

Etnolingvistika dunyo miqyosidagi fan ekanligi va xalqning turmush tarzi, ma'naviyati bilan bog'liq bo'lganligi bois turkologiyada ham bu sohaga qiziqish kuchli bo'lgan. Xususan, S.M.Abramzon²⁹, A.Jikiyev³⁰, E.Janpeysov³¹, M.S.Atabayeva³², M.I.Bagautdinova³³, A.K.Appoyev³⁴ kabi olimlarning etnografizmlarga oid tadqiqotlari buning yorqin dalilidir. Etnografik leksika haqida fikr yuritar ekan A.K.Appoyev semantik jihatdan etnografizmlar milliy madaniyatni aks ettiruvchi, etnik tarkibning o'ziga xos diniy dunyosini, milliy-etnik xarakter qirralarini namoyon etuvchi lug'aviy birliklar ekanligiga alohida e'tibor qaratadi³⁵. Tadqiqotchi etnografik leksikani kundalik turmushda qo'llanuvchi lug'aviy vositalar va kasb-hunar terminlari bilan chog'ishtirar ekan, etnografik leksikani qadimiyligini, xalqning etnomadaniy an'analarini, hayot tarzini aks ettirishini, ma'lum bir guruh kasb-hunar kishilari uchun xos bo'lmagan, balki muayyan tilda so'zlovchilarning ko'pchiligi uchun ma'lum bo'lgan narsalar, predmetlarning nomlarini bildirishini aytib o'tadi³⁶.

Shunday ekan, etnografizmlar xalqning o'tmishi, milliy madaniyati, turmush tarzi haqida muhim xulosalar chiqarish vositalaridan bo'lib, ular muayyan xalq etnomadaniyatini o'rganishning muhim omilidir³⁷.

²⁸ Курбаназарова.Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвوماданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. 7 бет

²⁹Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л.: Наука, 1971

³⁰ Джикиев А. Этнографический очерк населения Юго-Восточного Туркменистана (конец XIX– начало XX в). – Ашхабад: 1972

³¹ Жанпейсов Э. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата: Наука, 198

³² Атабаева М.С. Қозоқ тили диалектик лексикасининг этнолингвистик негизи. – Алматы: Билим, 2006

³³ Багаутдинова М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка: Автореф.дисс.канд.фол.наук. – Уфа, 1997.

³⁴ Аппоев А.К. этнографическая лексика карачево – Балкарского языка: Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Налчик, 2003

³⁵Аппоев А.К. этнографическая лексика карачево – Балкарского языка: Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Налчик, 2003. – С. 7.

³⁶Аппоев А.К. Кўрсатилган автореф. – С. 8.

³⁷ Курбаназарова.Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвوماданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. 5 бет

Etnografik dialektizmlar sohaga oid ilmiy asarlar tarkibida qo'llanishi, qolaversa, ayrimlari mahalliy belgi, xususiyatlarni tasvirlash, ya'ni lingvomadaniy tus berish maqsadida badiiy adabiyotlarda ishlatilgani sabab uning qo'llanish doirasi dialekal doiradan adabiy doiraga, shu bilan birga so'zlashuv uslubi doirasidan badiiy va ilmiy uslub doirasiga qadar kengayadi.

O'zbek tilining etnografik leksikasi mintaqaviy asosda to'la tadqiq qilinmagan bo'lib, bu holat biz o'rganayotgan hudud shevalariga ham taalluqli. Ushbu muammoni to'la tadqiq etish xalq hamda til tarixining haligacha mavhum bo'lgan ayrim jihatlarini ochishga yordam beradi. Mazkur hududda ham turli millat vakillari yashaganligi sabab ularning tillarida o'ziga xos nomushtarak tomonlar mavjud bo'lib, bu ularning etnografik leksikasida ham ko'zga tashlanib turadi.

Ma'lumki, o'zbeklar jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, sayqal berilgan moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalarining ildizlari juda olis zamonlarga borib taqaladi. Badiiy salohiyati g'oyat yuksakligi tufayli, juda qadim zamonlardanoq xalq og'zaki badiiy ijodiyotining bebaho namunalari yaratgan xalqimiz nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq xalqlari madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan folklor an'analari hamda marosimiy qadriyatlarining ham ijodkori hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan bebaho milliy folklor an'alarini o'z badiiy tafakkuri mahsuli bilan boyitib, yanada rivojlantirganligi uchun ham o'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelmoqda. Zero, ajdodlarimiz badiiy tafakkurining sarchashmaga monand qadim ildizlari shu qadar olis zamonlarga borib taqaladiki, ming yillar mobaynida xalq diliga jo bo'lib, so'zga chechan ijrochilar tilidan tushmay, boyib, to'lishib kelgan folklor asarlari milliy qadriyatlarimiz sarchashmasi sanaladi. Bu tafakkur mo'jizalari xalqimiz ma'naviyatini shakllantirish va muttasil rivojlantirib kelganligi uchun ham qadrlidir.

Etnolog olimlarning qayd etishicha, kishilar doimiy ravishda o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odat va ma'naviyatini tushunib olishga ehtiyoj sezgan. Bu ehtiyoj natijasida turli sohalar, fanlar vujudga kelgan³⁸.

Tilning leksik boyligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, xalqning milliy madaniyatini ko'rsatuvchi manbalardan biri – muayyan xalqning an'analarini, turmush tarzining barcha jihatlarini o'zida qamrab olgan etnografizmlar sanaladi. Har bir millatga xos lingvomadaniy xususiyatlar ular foydalanadigan tilning etnografik leksikasi majmuyida namoyon bo'ladi³⁹.

Etnografizmlar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, adabiyot, folklor singari fanlar zahirida alohida birlik sifatida tadqiq etilmoqda. Zero, dialektolog olim B.Jo'rayev ta'kidlaganidek, shevalarigina emas, etnografik udumlarimizni ham o'zida saqlovchi folklor matnlarining tilini o'rganmay turib, bugungi adabiy tilimiz normasini belgilash mumkin emas⁴⁰.

O'zbek tilshunosligida etnografizmlar tadqiq etish jarayonlari, asosan, XX asrning 70-80 yillarida boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida xalq urf-odatlariga etarli darajada e'tibor berilmasdan, ularning eskilik sarqiti deya baholanishi bu muammoga doir ilmiy tadqiqotlar doirasini cheklabgina qolmay, ham ularni o'rganish jarayonlarini birmuncha qiyinlashtirardi. Bu boradagi ilk tadqiqot ishlarini A.Jo'raboyev va Z.Husainovalar amalga oshirdilar. A.Jo'raboyev tadqiqotda xalqimizning xilma-xil ko'rinishga ega urf-odati mavjudligi va ularning tilimizdagi nomlari hamda ularni o'rganishning nazariy-amaliy ahamiyatini e'tirof etgan. Bundan tashqari, urf-odat, an'ana ifodalari bo'lgan etnografizmlar Sh.Nurullayeva, Y.Bobojonov kabi tadqiqotchilarning ishlarida formal tadqiq usullarida keng o'rganilib, tahlil etilgan. Aynan yuqorida sanab o'tilgan ilmiy izlanishlar, dissertatsiya, darslik va o'quv qo'llanmalar adabiyot sifatida tadqiqga tortildi. O'zbek tilshunosligida etnografizmlarni o'rganish

³⁸ Жабборов.И. Жаҳон этнологияси асослари.-Тошкент.Янги аср авлоди,2005.6 б

³⁹ Курбаназарова.Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021.12 бет

⁴⁰ Мирзаев.Н Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати,-Тошкент:-Фан,1991.4-6

borasidagi tadqiqotlar etarli emasligi, etnografik lug'atlarni deyarli o'rganilmaganligi alohida ta'kidlashimiz lozim.

Misol uchun Surxondaryo o'zbek shevalarini o'rgangan olim S.Rahimov nomzodlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida etnografizmlarga alohida to'xtaladi. "Umumturkiy so'zlarning shevada sohalar bo'yicha tarqalishi" deb nomlangan bo'limni olim quyidagi oltita mavzuiy guruhga ajratadi: qarindoshlikni bildiruvchi, odam uzvini ifodalovchi, uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi, oziq-ovqatga oid so'zlar, chorvachilik va u bilan bog'liq bo'lgan so'zlar hamda etnografiyaga oid so'z va terminlar⁴¹. O'z navbatida etnografiyaga oid so'z va terminlarni ham beshta guruhga ajratadi va ularni etnografizmlar deb ataydi.

Etnografizmlarga murojaat qilish bilan bog'liq holatni mahalliy dialektlarni tadqiq etgan boshqa shevashunos olimlar ishlarida ham uchratish mumkin. Ular o'z ishlarida dialektologik faktorlarga alohida urg'u bersalarda, hududiy hamda etnik omillarning yaqinligi sabab etnografik leksemalarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Qolaversa, bu tushunchalar bir-biriga chambarchas bog'liq. Chunonchi, 50-90 yillar oralig'ida dialekt sifatida qaralgan bir qator mahalliy so'zlar hozir etnografizm sifatida o'rganilmoqda. Bunga ko'plab an'analarning unutilayotganligi, o'sha paytda mahalliy aholining kundalik faoliyat turini tashkil etgan ba'zi kasb-hunarlarining yo'qolib, noyoblashib borishi sabab bo'lmoqda.

Masalan, turli xalq o'yinlari, dehqonchilik, o'rmakchilik, kashtachilik, o'tovsozlik yoki chorvachilik bilan bog'liq leksema (*etnografizm*)lar o'sha davrda dialekt sifatida o'rganilgan. Bugungi kunda ko'plab faoliyat turlari, milliy an'ana va udumlar, xalq o'yinlari va boshqa qadriyatlar milliy bayramlarda mahalliy etnografiya namunasi sifatida namoyish etiladi.

⁴¹ Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари, Ўзбек халқ шевалари луғати, -Тошкент, 1971.

Hozirda o‘zbek tilshunosligida etnografizmlarni o‘rganish borasida N.Mirzayevning tadqiqoti bu borada e‘tiborga loyiqdir⁴². Ushbu tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyati etnografik leksikasi tahlil etilgan bo‘lib, Qashqadaryo o‘zbek shevalari etnografik leksikasining etimologik tarkibi, leksik-semantik xususiyati, zamonaviy jihatdan guruhlanishi, etnografik leksikaning yuzaga kelishi va grammatik xususiyatlari asosida o‘rganilgan. Tadqiqot ishida etnografik leksikaning etimologik tarkibi umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlar asosidagi etnografizmlar, tojikcha va arabcha qismlarga ajratilgan holda tahlil qilingan⁴³.

O‘zbek tilshunosligida etnoleksemaning etnografik va lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilishi borasidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar dastlab dialektologik o‘rganishlar jarayonida vujudga kela boshladi. Etnoleksema doirasida yaratilgan dastlabki tadqiqotlarda “Janubiy Xorazm shevalari etnografik leksikasi”⁴⁴ kabi atamalarga duch kelamizki, bunda tadqiqot obyekti bo‘lgan etnomadaniy leksemalar shevalarni o‘rganish jarayonida leksikografik tahlil qilinganligi sezilib turadi. Masalan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida uchraydigan etnografizmlar A.Ishayev va E.Urazov ishlarida tadqiq etilgan⁴⁵.

Avvalambor, Qashqadaryo vohasi xalq so‘zlari voha dialektal nuqtai nazardan XX asrning 60-yillaridan boshlab o‘rganila boshladi. A.Shermatov, B.Jo‘rayev, T.Nafasov va D.Abdurahmonovlar, fan nomzodlari T.Qudratov, N.Shoimovalar xalq nutqining shevaviy tuzilishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishdilar⁴⁶.

Xususan, o‘zbek shevalarini keng sathda o‘rganish borasida o‘zbek dialektolog olimlarining xizmatlari salmoqlidir. Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, F.Abdullayev va yana boshqa o‘nlab

⁴² Мирзаев.Н.Этнографическая лексика узбекского языка: Дисс.канд.филол.наук. -Ташкент, 1971

⁴³ Мирзаев.Н.Этнографическая лексика узбекского языка:Дисс.канд.филол.наук.-Ташкент,1971 –Б 34-35

⁴⁴ Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси: Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1997. – 74 б

⁴⁵ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. 55 бет

⁴⁶ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек шевалари. -Тошкент, Мухаррир. 2011. 8-б

olimlar o'z tadqiqotlarida shevalar bilan birga etnografik leksemalarga ham alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbek tilshunosligida etnografizmlarni ilk marta sistem metodda tadqiq etgan olim M.Qahharovadir. Uning uch bobdan iborat dissertatsiyani birinchi bobi "Etnografizmlarning til sistemasidagi o'rni" deb nomlanib, mazkur bobda o'zbek tilshunosligida til sistemasining maydon sifatidagi o'rganilish darajasi, etnografik leksika til sistemasining tarkibiy qismi sifatida, etnografizm maydoni haqida kabi mavzular keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu bobda olim F. de Sosyur, A.Nurmonov, I.Qo'chqortoyev, D.Voqqosova, Sh.Iskandarova L.Elmslev kabi olimlarning sistem qarashlari va izlanishlari asosida o'z g'oyalarini ilgari surgan. Undan tashqari o'zidan oldingi shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar dissertatsiyalari sistem qarashlar asosida tahlil qilingan.

O'zbek tilshunosligida sof etnografizmlar tadqiqi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar uncha ko'p emas. Shulardan dastlabkisi N.Mirzayevning Qashqadaryo viloyati etnografizmlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishidir. Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 70-yillarida yaratilgan mazkur ilmiy ish va olim tomonidan yaratilgan lug'at anchayin salmoqli hamda keyingi shu sohaga oid izlanishlar uchun o'ziga xos metodologiya vazifasini o'tamoqda. Olim tomonidan yozilgan uch bobdan iborat nomzodlik dissertatsiyasi Qashqadaryo o'zbek shevalari etnografik leksikasini etimologik har xillik, leksik-semantik xususiyat jihatdan hamda etnografik leksikaning yuzaga kelishi va grammatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. N.Mirzayev etnografizmlarni shunchaki dialektal mulk sifatida emas, balki, uning etnomadaniy hamda lingvomadaniy taraflarini ham yaxshi his etgan. O'sha davr Qashqadaryo qishloqlariga xos turli etnografik voqeliklarni aks ettirishga harakat qilgan. Xususan, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, kashtachilik, zardo'zchilik va boshqa turli marosimlar, rasm-rusumlar haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Ilmiy ishning yutuqlaridan biri mahalliy aholining

islomgacha bo'lgan dinlar ya'ni, otashparastlik, shomanlik kabi dinlarga xos urf-odat, irim-sirimlar bilan bog'liq etnografizmlarni ham yoritganidadir.

Shunga qaramay N.Mirzayev dissertatsiyasida arabcha so'zlar asosidagi etnografizmlar deb bir qator so'zlarni keltiradi hamda ularning Qashqadaryo o'zbek shevalari etnografik leksikasidan ham keng o'rin olganligini ta'kidlaydi. Olimning mazkur sohadagi yana bir yutug'i Qashqadaryo va Surxondaryo etnografizmlarini o'zida jamlagan lug'atidir. Bu lug'at o'zbek tilshunosligida etnografizmlarga oid ilk lug'atligi bilan ahamiyatlidir.

Yana bir etnografizmlarni tadqiqiga bag'ishlangan muhim ishlardan biri bu N.Amonturdiyevning "Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari" nomli dissertatsiya ishi hisoblanadi. Ilmiy ishda asosan Surxondaryo aholisi nutqida uchraydigan etnografik birliklar lug'atda berilishining nazariy asoslarini takomillashtirish va "O'zbek tilining izohli lug'ati"da etnoleksika ko'lamini kengaytirish maqsad qilib olingan. Tadqiqot ishining III bobida "Surxon etnografik mavzuiy izohli lug'ati"ni tuzish va unda etnografizmlarni berish masalasi ilgari suriladi. Bobda dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlari kichik tematikaga bo'linib, dehqonchilikka va chorvachilikka oid etnografizmlar sanab o'tiladi. Shuningdek, tadqiqotda o'zlashma etnoleksemalarning etimologiyasi haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Po'za (f.-t.) – yerni shudgor qilishda omochning uchiga kiydiriladigan metal (cho'yan), uchi o'tkir moslama-tish.

To'la – chorvador aholi qish yoki bahor faslida ko'chib yurganda, to'lovlash mavsumida qo'y va echking yangi tug'ilgan bolalarini xavfsiz va issiqda saqlash uchun qazib qilinga joy⁴⁷. Tadqiqotda Surxon vohasi etnoleksikasi semantik, tematik, lingvokulturologik, leksikografik jihatdan tadqiq etilib, etnografizmlar o'rganildi va ularni lug'atlarda keltirish masalasi yoritildi. Etnografik birliklarning hududiy va umumiy lug'atlarini tuzish

⁴⁷ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. 110 бет

etnoleksemalarning leksik-semantik, etimologik nuqtayi-nazardan o'rganilishi etnografizmlarning o'rganilishi uchun muhim manbalardan biri bo'ldi.

Etnografizmlarni o'rganish ishlari davom ettirilib, soha rivoji takomillashdi. N.Kurbonazarovning "Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiya ishi ham Surxondaryo vohasi etnografizmlarining o'rganilishida muhim ishlardan biri bo'ldi. Tadqiqot ishida Surxondaryo vohasidagi nikoh to'yi marosimlariga oid etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish asosida ularning til tizimidagi o'rni va milliy mentalitetni vujudga keltirishni nazariy jihatdan asoslash maqsad qilib olingan. Shuningdek, tadqiqot ishining birinchi bobida etnolingvistik tadqiqotlar, etnografizmlar va ularga yondosh hodisalar tahlil qilingan. To'y va u bilan bog'liq lingvistik vositalar lingvomadaniy birlik ekanligi asoslangan.

Etnografizmlarni o'rganish jarayonida bir qancha millatlarning bir-biriga etimologik jihatdan bog'liqligini kuzatishimiz mumkin. Ana shunday o'rganish ishlarini olib borgan tadqiqotchilardan Muhammad Humayun Nadimning "Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishidir. Ilmiy ishda Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining leksikografik tadqiqi masalalarini lingvistik tahlil qilish asnosida "Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlari izohli lug'ati"ni yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish maqsad qilib olingan. Shuningdek, Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnomadaniy holati, Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnografik leksikasi taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar hamda Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari leksikasining tarixiy-etimologik xususiyatlari tahlil etiladi.

Surxon vohasi leksikonida mavjud etnografik leksemalar S.Rahimov, A.Omonturdiyev, X.Xolmo'minov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ma'lum darajada yoritib berildi. Garchand bu leksemalar dialektal va evfemik nuqtai

nazardan tahlil qilingan bo'lsa-da, xalq hayoti, etnomadaniy jarayonlar, voha aholisi hayoti va o'tmishini o'zida aks ettirishi hamda keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba vazifasini o'tamoqda.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, hozirgacha dehqonchilik etnografizmlarini alohida bir tadqiqot qilinganligi kuzatilmadi. Bu o'rganishlarni davom ettirib, dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarini leksik-semantik jihatdan tadqiq etib, ilmiy jihatdan asoslashga, o'rganishga harakat qildik. Bu o'rganish jarayonida Surxon vohasi dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlari obyekt sifatida olindi.

1.2. Surxondaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik tadqiqi

Dialekt tilning chegaralangan hududiy shaklidir. Boshqacha aytganda, dialekt adabiy til qonun-qoidalariga qarshi turadigan muloqot shakli hisoblanadi. Tilning turli tarixiy-leksik qatlamlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar, o'tmish va hozirgi zamon turmush tarzini, jamiyatni va u shakllantirgan qatlamlarini ko'rsatadi. Bu leksik qatlamlardan biri dialektlardir. Har bir dialekt, uning konservatizmi va o'ziga xos til xususiyatlarini yangi so'zlarga singdiradi. Tarixiy tilda shevalarning asosiy roli til taraqqiyoti uchun etnografik so'zlarni o'rganish jarayonida yuzaga keladi.

XI-XII asrlarga oid turkiy etnografizmning hozirgi tillardagi shevalardan foydalanishining tarixiy ma'nosini saqlashdan tashqari so'zlarda shevalarda qo'shimcha ma'nolar yasalishi ham kuzatiladi. XI-XII asrlardagi turkiy etnografizmlarga oid aniq ma'lumotlarni hozirgi tillardagi shevalardan foydalanib olishimiz mumkin. O'sha davr shevalarida so'zlarning tarixiy ma'nosini saqlash bilan bir qatorda qo'shimcha ma'nolar hosil qilishi ham kuzatiladi.

Til etnos hamda madaniyatning yaxlit tizim ekanligini isbotlagan zamonaviy tadqiqotlarning ilmiy tahlil va xulosalari, shuningdek, ularda o'rinli

qo'llanilgan ilmiy-nazariy kontsepsiyalarning mohiyati turkiy tillarning etnografik leksikasini o'rganish uchun asos bo'ladi. Shu jumladan, Surxondaryo vohasidagi dehqonchilik va chorvachilikka oid ma'no mazmun-mohiyatini o'zida ifodalovchi dialektal etnografizmlarning leksik-semantik tabiati, lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirishga ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy jihatlardan metodik va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ikki va ko'p tilli lug'atlar, shuningdek, izohli, etimologik va terminologik lug'atlarning yuzaga kelganligi, o'zbek tili shevalarining leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarining atroflicha o'rganilganligi, o'zbek xalq shevalariga oid etnografik - dialektal leksikaning areal-hududiy xususiyatlarini mukammal talqin etib, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tahlil qilishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki dialektal leksika tarkibida xalq, urug' va qabilalarning turmush tarzi ko'rinishlarini ifodalovchi etnografik leksikaning o'ziga xos o'rni, mavqei, mohiyati va shu bilan birga ijtimoiy, ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ham bor. Etnografik leksika kattta hajmdagi leksik birliklarni o'zida jamlagan bo'lib, faqat uning bir bo'lagi – dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlari hisoblanadi.

Shu bois Surxondaryo vohasida yashovchi xalqlarga xos asosiy moddiy va ma'naviy belgilarini madaniyatida saqlagan, uzoq davrlar mobaynida hududiy-areal xususiyatlar kasb etgan ushbu hududdagi dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografizmlarining leksik-semantik tabiati va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganilayotgan joyga xos madaniy jarayon, madaniy makon, mentalitet, madaniy an'ana, madaniy meros va madaniy fond tushunchalariga tayanilgan holda tadqiq qilishning obyektiv zarurati sezilmoqdaki, ushbu masalani monografik tadqiqot sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Surxondaryo vohasida aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik, dehqonchilik va qisman bog'dorchilik bo'lgan. Chorvachilikning asosini qo'y-qo'zi, ot va tuya tashkil qilgan. Mayda shohli chorva mollari mahalliy aholining

kundalik hayotida asosiy iqtisodiy omil hisoblanadi. Otdan uzoq qo'shni ovullarga borib kelishda transport vositasida foydalanishgan. Ayrim chorvadorlarda 80-100 tagacha tuya bo'lgan. Tuya ham aholining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Etnik aralashish jarayonida o'zaro madaniyatlar almashib, iqtisodiy rivojlanish boshlanadi.

Dehqonchilik, chorvachilik va qisman bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash XX asrning so'nggi choragigacha davom etadi. Qiziqarli tomoni shundaki doimiy ravishda chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan ayrim urug'lar, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholidan dehqonchilik sirlarini o'zlashtirib, dehqonchilikda yuqori natijaga erishgan.

Bundan tashqari, keyingi davrlarda davlatimiz tomonidan belgilangan kasb bayramlari ham shu kasb egalari orasida marosim sifatida shakllanib, adabiy dialektal xarakterdagi marosim nomlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu o'rinda turli xil bazm va bayramlarni ifodalovchi atamalarga e'tibor qarataylik. Bunday dialektizmlar ham shevalar leksikasi tarkibida mavjud bo'lib, yerli aholi shevasida mustahkam o'rnashib qolgan va ular etnografizmlar hisoblanadi.

Haqiqatdan, etnografizmlar hudud maishiy va madaniy hayotining in'ikosi bo'lib, qator jabhalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, kasb-hunar bilan bog'liq marosim nomlari ham shevalarda keng uchraydi. Qaysi kasb egasi bo'lmasin, qandaydir niyatda shu kasbni e'zozlab, kasbiga bog'liq biror bir marosimni o'tkazadi. Masalan, dehqonchilik kasbi bilan shug'ullanuvchi shaxslar *egishga cho'sht'*, *xirman toyi*, *toldi palav* kabi marosimlarni o'tkazish bilan o'z tilidagi marosim leksikasi tarkibiga anchagina dialektizmlarni kiritadi⁴⁸.

Etnografizmlarning shakllanishida tub va yasama so'zlardan yasalgan etnografizmlarga nisbatan so'z qo'shish usuli asosida paydo bo'lgan

⁴⁸ O.Нуржанов. Ўзбек шевалари таркибидаги этнографизмларнинг соҳалараро боғлиқлиги. Фан ва жамият илмий-услубий журнал.- №2/2021

etnografizmlar ancha ko‘p va turlicha ekanligi ta’kidlanadi. Urf-odat va dasturlar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalashda “ot-ot”, “ot-fe‘l” tipidagi qo‘shma atamalar katta e’tiborga loyiqdir. “Ot va fe‘l” shaklidagi otlarning turli grammatik shakllarda kelishiga ko‘ra ular, tushum kelishigidagi ot va fe‘l, jo‘nalish kelishigi shaklidagi ot va fe‘l hamda chiqish kelishigi shaklidagi ot va fe‘l turi deya uchga bo‘lib o‘rganildi⁴⁹.

N.Amonturdiyevning “Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida etnografizmlarni tasniflash va lug‘atlashtirish bilan bog‘liq qimmatli nazariy takliflar ilgari surilagan. Moddiy madaniy etnografizmlar xalqning qadimiy yashash tarzi, tirikchiligi bilan aloqador, bevosita ishlab chiqarishning moddiy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda hosil bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, ish qurollari, zargarlik buyumlari, turli predmetlar bilan bir qatorda unga aloqador urf-odatlar, an’analar, irim-sirimlar ham kiradi. Xususan, etnografizmlar tematikasi ko‘lamini belgilash eng muhim omillardan biri sanaladi. Besh jildli izohli lug‘atda izohlangan etnografizmlar, asosan, bevosita yoki bilvosita din (*e’tiqod*) bilan bog‘liq marosim nomlari (*to‘y, aza va ular bilan aloqador urf-odatlar, irim-sirimlar*) va tushunchalar hisoblanadi⁵⁰.

Surxondaryo dehqonchilik etnografizmlarini turlarga ajratish va tasniflashda hududning o‘ziga xos dialektal xilma xilligini hamda etnografik manzarasini hisobga olish zarur. Professor S.Rahimovning ta’kidlashicha Surxon vohasi aholisi asosan uch xil shevada gaplashadi. Bular “J” lovcilar (*qipchoq*), “Y” lovcilar (*qarluq*) hamda ikki tilda gaplashuvchi (*o‘zbek va tojik tilini aralash holda ishlatuvchi aholiga nisbatan*) sheva vakillaridir. Bu sheva vakillari orasida “J” lovcilar ko‘pchilikni tashkil qiladi hamda hududga xos etnografizmlarda qipchoq dialektlariga xos belgilar faol uchraydi. Masalan, *toshjelin (elin), moltoyaq (cho‘pontayoq), qovurdoq, jugan (yugan), jovuz (uzum*

⁴⁹ Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Тошкент, 2018.

⁵⁰ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021. – 137 б..

navi) kabi. Ta'kidlash lozimki, voha "J" lovchi shevalariga oid dialekt va etnografizmlar mamlakatimizning boshqa viloyatlari qipchoq shevasi vakillari nutqida ham shu ma'noda ishlatilishi kuzatilgan. Etnografizm sifatida moddiy madaniyatimizni belgilovchi birlik nomlari qisman uchraydi.

Dehqonchilik etnografizmlarining shakllanishini o'rganish jarayoni shuni ko'rsatadiki, har qanday dehqonchilikka oid shevaga xos so'z dehqonchilik etnografizmi bo'la olmaydi. U ma'lum bir urf-odat, qadriyat, an'ana bilan bog'liq holda shakllangan bo'lishi lozim. Dehqonchilikka oid etnografizmlarni leksik-semantik tahlili, uning voha aholisi nutqida qo'llanilishi tadqiqotimiz obyekti hisoblanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, aholi nutqida eskidan saqlanib kelinayotgan dehqonchilik terminlari, ular asosida shakllangan qarashlar, udumlar voha aholisining dehqonchilik qilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Dehqonchilik bilan bog'liq etnografizmlarni quyidagi kichik tematik guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

1) **ish qurollari nomini ifodalovchi etnografizmlar:** dulob, kurak, omoch, do'l, keli, bo'yinturug', tirkish, mola, tish, arqon, qop, shoxa, g'albir, chig'il, surug', xo'rjin, o'q;

2) **oziq-ovqat va milliy taom nomlarini ifodalovchi etnografizmlar;** gilagay, chakki, g'ulun, qag'anoq, kuvi-guppi, do'rda, atala, ko'k somsa, chuchvara, yupqa, to'ntarma, kesgan osh, o'moch osh, tobanon, shirguruch;

3) **dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlarni ifodalovchi etnografizmlar:** shoxmoylar, darveshona, loy tutish, tulki qochdi, galagov, xo'ppi, tob tortmoq;

Etnografizmlar til sathining qadimiy leksik qatlami, ularning ma'nosini izohlash asosiy muammo sanaladi. Chunki hududiy etnografik dialektizmlar etnografik jarayonlarning funksional-semantik xususiyatiga ko'ra qisman yoki to'liq farqliligi, ilm-fan, texnikaning rivojlanishi natijasida shu faoliyat turining arxaiklashuvi tufayli til egalarining barchasi uchun ham tushunarli bo'lavermasligi mumkin. Bu esa etnografizmlarda mavjud informatsiya (*xabar*,

ma'lumot)ni to'liq izohlashni talab qiladi. Etnografizmlarni tahlil qilish jarayonida uning tag zamiriga e'tibor bergan holda tahlil qilishga harakat qilindi. Dehqonchilik bolan bog'liq etnografizmlarni o'rganish jarayonida ularni tematik jihatdan bo'lib tahlil qilindi. Xususan, ish qurollarini ifodalovchi etnografizmlarni oladigan bo'lsak, aholi orasida keng muomalada bo'lgan va hozirda muomaladan chiqayotgan so'zlarni ham uchratishimiz mumkin:

Qayrog'tosh – “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “silliq yoki qayrab, charxlab, maxsus shakl berilgan tosh” deb izoh berilsa, “O'zbek tili so'zligi” da qayrog'tosh, o'roq yoki shunga o'xshash narsalarni tezlash (*o'tkir*) qilish maqsadida ishlatiladigan tosh nomi, deb izohlanadi.

Kurak – “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “sochilgan narsalarni sindirish, kurash, to'plab biror narsaga solish uchun ishlatiladigan, yog'ochdan yoki metallardan yasalgan uzun soqli asbob” deb izohlanadi. Qor kurash maqsadida ham foydalanadilar. G'allaning donini somondan ajratish hamda donni tozalash uchun foydalaniladigan dehqonchilik predmeti.

O'roq – so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday “turli boshqoqli ekinlar, beda, pichan, bug'doy, arpa va o'tlarni qo'lda o'rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o'tkir tig'li mehnat quroli” deb berilgan, “O'zbek tili so'zligi”da “g'allani o'rish uchun ishlatiladigan predmet” tarzida izohlangan. Ikkala lug'atnoma izohlariga diqqat bilan qaraganda, bu predmatning ikkala tomonda bir xil nom va bir xil ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin.

Bel – pastki qismi temir, yuqorisi yog'ochdan tuzatilgan dehqonchilik predmeti. Bundan asosan yer ag'darish, pal tuzatish hamda suv tutish uchun foydalaniladi. Mazkur leksema “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och soqli temir qurol” deb izohlanadi. O'zbekistonda yashovchi dehqonlar katmon (*ketmon*) dan ham bel o'rnida foydalanadilar.

Cho'bshoxa – cho'p (*yog'och*) dan tayyorlangan dehqonchilik predmeti. Bu leksemaga lug'atnomada hech qanday izoh berilmagan. Mazkur asbobdan

asosan somonni qopga solish, somon qoldiqlarini yig'ish maqsadida foydalanadilar. Bu atama o'zbek dehqonlari og'zaki nutqida "shaxa" yoki "shoxa" tarzida talaffuz qilinadi.

Qirtish – yuqori qismi yog'och, pastki qismi temirdan tashkil topgan. Yerga tushgan o'simlik poyalarini bir joyga yig'ish uchun foydalaniladigan dehqonchilik uskunasi. Qirqta tishdan tashkil topgani uchun, qirtish deyiladi. Ayrımlari qirqtadan kam bo'lishi ham mumkin. Qirtish leksemaga oid "O'zbek tilining izohli lug'ati"da hech qanday izoh berilmagan.

Ko'za – sopoldan, loydan tayyorlangan. Dehqonlar yoz payti dalaga chiqanlarida ichimlik suvini normal holatda saqlaganligi uchun, suvni mazkur asbob ichga solib qo'yadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo'g'zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish" deb izohlangan. Mazkur so'zga tegishli izohlarga qaraganda, shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu leksema ikkala tomon o'zbeklari nutqida ham bir xil talaffuz va ma'noga ega. Mazkur leksema hozirgi kunda O'zbekiston aholisining og'zaki nutqida kamda-kam uchraydi. Ammo, juda chekka qishloqlarda bu atama eskirmagan, hamon qo'llanilib kelinmoqda.

Qo'riq – o'zlashtirilmagan, lekin dehqonchilik qilish uchun istiqboli bor yerlar; oldinlari ekin ekilgan, keyinchalik ekilmasdan tashlab qo'yilgan yer. Mazkur yerdan asosan, o't o'stirib mollarni boqish maqsadida foydalanadilar.

Chorriq – dehqonlar kiyadigan maxsus oyoq kiyim. Xom teridan tikilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "qattiq xom teridan tikilgan, asosan tog'li hududlarda xalqlar orasida rasm bo'lgan oyoq kiyimi" deb izohlanadi. Mazkur atamaning qo'llanishi ikkala hududda yashaydigan o'zbeklar uchun ham deyarli bir xil. Farqli tomoni shundaki daryoning narigi tomonida turgan o'zbeklar mazkur oyoq kiyimdan asosan dehqonchilik ishlaridan biri bo'lmish, bug'doy yoki arpa kabilarni o'rayotganlarida, bu o'simliklarning poyasini yerga qolgan qismi oddiy oyoq kiyimni teshib oyoqqa zarar yetkazgani uchun, mazkur oyoq kiyimdan foydalanadilar.

Qop – plastikadan tayyorlangan, kattaligi bir yarim, ikki metr atrofida, somon solish uchun mo'jallangan dehqonchilik predmeti. Hozirgi kunda qop so'zi chekka qishloqlardagina ishlatiladi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bu leksema hozirgi kunda ham voaha aholisi o'rtasida faol ishlatiladi.

Surug' – bo'yi yetmaydigan, baland narsa, xususan mevalarni qoqib olish uchun yog'ochdan qilingan maxsus bog'dorchilik uchun qo'llaniladigan ish quroli.

Temirshoxa – pastki qismi temir yuqori qismi yog'och, to'rtta uzun tishdan tashkil topgan dehqonchilik asbobi. G'allaning novdalarini hamda tikan tashish uchun foydalaniladigan dehqonchilik predmeti.

G'albur – maydamol ichagidan tayyorlangan, g'allaning donini tozalash uchun ishlatiladigan dehqonchilik predmeti. Bug'doy doni bilan aralashgan tuproq va o't - o'lanlarning urug'ini ajratish maqsadida mazkur asbobdan foydalanadilar.

Chig'il – maydamol ichagidan tayyorlangan, teshigini kattaligi g'alburdan kattaroq, g'allaning donini tozalash uchun ishlatiladigan dehqonchilik predmeti. Mazkur asbobdan bug'doy doni bilan aralashib qolgan poxollarni, dondan ajratish masadida, bu uskunadan foydalanadilar.

Mola – yog'och yoki temirdan yasalgan, kesaklarni maydalash hamda ag'darilgan yerni tekislashda xizmat qiladi. Traktor yoki ho'kiz orqasiga taqilib ag'darilgan yer ustidan yuritiladi.

Buyintiriq – yog'ochdan tayyorlangan. Ikki ho'kkizni yelkasiga qo'yilib, omochni tortish uchun xizmat qiladi.

Omoch/amoch – ulov (*ot, ho'kiz*) qo'shib yer haydaladigan yog'och asbob. Omoch qadimiy (*hali traktor va plug bo'lmagan davrlar*)da asosiy yer haydash quroli hisoblangan. Omoch, asosan, 3 qism: tana, quloq va o'qdan iborat bo'lgan. Omoch qismlari qattiq yog'ochdan tayyorlanadi. Tananing old tomoni uchli bo'lib, unga tish (*metall tig'*) kiydirilgan (*shu tig' bilan yerni ag'darib ketilgan*).

Quloq – tananing orqa tomoniga biriktiriladigan yog’och dasta. Qo’shchi shu quloqdan ushlab omochni yo’naltirib borgan.

O‘q – tananing old tomoniga, quloqning pastrog’iga qoqiladigan chorqirra, yassiroq yog’och. O‘q ot yoki ho’kiz bo’yin tirig’iga mahkamlangan. U tana va quloqni oldinga tortib borgan.

Terkish – arqondan tayyorlanadi, bo’yintiriqni o’rtasiga qo’yiladi, omochni tortish uchun yordam beradi.

Tish – temirdan tayyorlangan, yerni haydash uchun xizmat qiladi. Omoch, sepal, no‘pal, hajdapal kabi dehqonchilik asboblarning erni kovlaydigan (*ag‘daradigan*) qismi.

Tevana – temirdan tayyorlangan igna. Bug’doy, arpa va shu kabilarning qopga solgandan keyin, yerga to‘kilishini oldini olish uchun mazkur qopni og’zini ip bilan, tevana yordamidan tikadilar.

Chapar – qadimgi dehqonchilikda galagov jarayonida somonning yaxshi mayda qilishga yordam beradigan dehqonchilikka oid asbob. Bu leksema “O‘zbek tilining izohli lug’ati”da izohlanmaganligini eslatib o‘tishimiz darkor. Galagov jarayonida chiqadigan somonga nisbatan ham, chapar somon leksemasi ishlatiladi.

Kurak – yong’oq, tut, tol daraxtlaridan tayyorlangan bug’doy yanchadigan asbob hisoblanadi.

Kerka – qattiq, belkuraklar kuchi etmaydigan yerni kovlash uchun ishlatiladigan mehnat quroli.

Do‘l – bug’doy solinadigan jihoz.

Dehqonchilik bilan bog’liq etnografizmlarning oziq-ovqat, milliy nomini taomlarni ifodalovchi etnografizmlarni keltirish jarayonida aholining leksikasida hozirda muomalada yo‘q bo‘lgan etnografizmlarni uchratishimiz mumkin. Dehqonchilik mahsulotlaridan taomlar tayyorlash keng rivojlangan bo‘lib, o‘z davrida o‘simliklardan tayyorlanadigan taomlari xilma-xilligi bilan o‘ziga xos

o‘ringa ega bo‘lgan. Arpa un, jo‘xori un, bug‘doy un, makkajo‘xori unlaridan turli xildagi nonlar hamda taomlar tayyorlangan.

Do‘rda – xom va pishgan qaymoq qozonda kuydirilib, tayyorlanadigan taom.

Surxon vohasida **“Yupqa”** bug‘doy unidan tayyorlangan. Yupqa uchun tayyorlangan xamir shaftoli kattaligida bo‘lakchalarga bo‘linib, bo‘lakcha xamirlarga un sepib, xamir yupqa qilib yoyiladi. Pishirishdan oldin yupqalardan un qoqib tashlanadi, qozon ichki devorlari ozgina yog‘lanib, qizdiriladi. Avval birinchi yupqaning ikki tomoni pishiriladi, so‘ngra uning ustiga ikkinchi yupqa qo‘yiladi va qozonning qizigan yuzasiga ag‘dariladi⁵¹.

Umoch osh – elangan un idishga solinib, unga oz-ozdan sho‘r suv sepilib, bug‘doy donlaridek bo‘lgunga qadar idishda qo‘l bilan ishqalanadi, so‘ngra ular elab undan ajratib olinib qaynab turgan suvga solib, yana qaynatiladi. Qatiq kuyib ketmasligi uchun biroz sovutilgach, u bilan aralashtirilib iste‘mol qilinadi. Bu etnografizmlar hozirda ham Surxondaryo viloyati qishloq aholisi nutqida uchraydigan, qadimiy leksik qatlamida saqlanib, biroq sekin asta muomaladan chiqayotgan so‘zlardir.

Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an‘ana va qadriyatlaridan ajratgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Surxondaryo hududi qadimdan madaniyat va san‘at o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. Vohada dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina urf-odat, irim-sirimlar borki, ular o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Bobodehqon – to‘g‘ri so‘z birovining haqidan hazar qiladigan, halol mehnat bilan yashaydigan dehqonlarning hosiliga qut beradigan dehqonchilikning piri hisoblangan. Voha aholisi dehqonchilik qilishda kunning “o‘ng” yoki “chap”ligiga, “xosiyatli” yoki “xosiyatsiz” bo‘lishiga katta e‘tibor qaratganlar. Ota-bobolarimiz qadimdan hafta kunlariga bog‘liq bo‘lgan shunday

⁵¹ Дала ёзувлари. 1990-йил Олтинсой тумани Жобу кишлоғи

dastur-amallar yaratganlarki, bu manbalarda xar bir kunida qanday ishlarni qilish mumkinligi yoki mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Loy tutish - vohada dastlab ekin ekishdan avval ariq, shox ariqlar hamda kanallar qazilgan. Shu vaqtda dehqonchilik marosimlaridan biri "**Loy tutish**" marosimi o'tkazilgan. Bunda ariq qaziyotgan odamlar oldidan biror yo'lovchi o'tib qolsa, o'tayotgan yo'lovchiga ariq qaziyotgan odamlardan bittasi bel yoki ketmonda loy tutishgan. Yo'lovchi tutilgan loyni uzatilgan asbobi bilan birga olishi shart bo'lgan, shu jarayonda yo'lovchi o'zining bironta hunarini ko'rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi mumkin bo'lgan. Xususan, baxshi dostonidan terma kuylashi, hofiz qo'shiq aytishi, hunarmand esa ariq qazuvchilarning asbobini ta'mirlab berishi lozim bo'lgan. Agarda bu holatdan chiqib keta olmasa, ariq qazuvchilarni mehmon qilishi yoki ular tomonidan ko'rsatilgan ariqni tozalab berishi lozim bo'lgan⁵².

Navro'z bayrami arafasida "**Yil boshi oshi**", "**Yil ayrilish oshi**" marosimi o'tkazilagan. Bu marosimni "**Darveshona**" deb ham atashgan. Yoshi ulug' keksalar bir kunni belgilashib, qishloq ahlini oshga chaqirganlar. Yoshi ulug' keksalarimiz bunday nomlanishiga quydagicha izoh berishgan: "darveshlar bir yerga yig'ilishganida yana bir bor salomat ko'rishib turishgani uchun bir-birlarini qutlashgan va shuni nishonlaganlar. Alloh bergan ne'matlariga shukronalik keltirganlar. "Shuning uchun ham har yangi yil boshida osh qilib, dasturxon yozib, aholi bir-birlarini ko'rib xuddi darveshlardek qutlaydilar.

Shoxmoylar - ekin ekishning ilk kuni dalaga qo'sh chiqarish "**Shoxmoylar**" udumi bo'ib, dehqonchilik kasbiga oid eng muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Chunki dehqonchilikka aloqador marosimlarning deyarli barchasi mazkur udum yo'l ochib beradi, bu marosimga qishloq aholisining barchasi ishtirok etgan. "Shohmoylar" udumi erta bahorda asosan Navro'z kunlari o'tkazilib, dehqonchilik taqvimiga asosan dushanba,

⁵² Дала ёзувлари 1997-2003 йиллар Денов, Олтинсой, Кумкўрғон, Шўрчи, Сарносиё туманлари

chorshanba yoki juma kunlaridan biriga to'g'ri kelishi lozim bo'lgan. Marosim o'tkaziladigan joyda qishloq ahli tomonidan pishirib kelingan tanavvul qilingan.

O'zbek tilining etnografik leksikasi mintaqaviy asosda to'la tadqiq qilinmagan bo'lib, bu holat biz o'rganayotgan hudud shevalariga ham taalluqli. Ushbu muammoni to'la tadqiq etish xalq hamda til tarixining haligacha mavhum ayrim jihatlarini ochishga yordam beradi. Mazkur hududda ham turli millat vakillari yashaganligi sabab ularning tillarida o'ziga xos nomushtarak tomonlar mavjud bo'lib, bu ularning etnografik leksikasida ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, o'zbeklar jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, sayqal berilgan moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalarining ildizlari juda olis zamonlarga borib taqaladi.

Surxondaryo vohasi chorvachilik etnografizmlarining semantik tabiati tahlili etnografizmlarning til va milliy ma'naviy birlik sifatida o'rganilishi uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini bajarishi, etnolingvistika, lingvokulturologiya, umumiy tilshunoslik kabi fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga muhim manba bo'lishi asoslangan. "Afsuski, hozirgi o'zbek adabiy tilimiz, – deb yozadi Bosim To'ychiyev, – yaylov, qishlov, o'tov, keraga kabi chorvachilikka doir bo'lgan ko'plab so'zlarni chetlab o'tdi. Hozirgi adabiy tilimiz bilan mumtoz tilimiz oralig'iga katta to'siq qo'yilganidek, bunday to'siqlar adabiy til bilan umumxalq tili hamda xalq og'zaki ijodi namunalari tili orasiga ham juda sezilmaydigan qilib qo'yildi. Natijada, adabiy tilimiz ularning ko'pchiligidan mahrum bo'lib qoldi". Shuningdek, muallif hozirgi o'zbek adabiy tili uch manbaga: 1) mumtoz til; 2) umumxalq tili; 3) xalq og'zaki ijodi – topishmoq, maqollar, iboralar, ertak va dostonlar tiliga suyanishi kerakligini ham to'g'ri ta'kidlagan⁵³.

⁵³ Тўйчиев Б. Яйлов, қишлоқ, керага ва олтин сўзларининг шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, №3, – 68.6

Dialektolog olim B.Jo‘rayev ham shevalarnigina emas, etnografik udumlarimizni ham o‘zida saqlovchi folklor matnlarining tilini o‘rganmay turib, bugungi adabiy tilimiz normasini belgilash mumkin emasligini uqtirgan⁵⁴.

Tilning leksik qatlamini, uning nutqiy xususiyatlarini, lingvopoetikasi, jumladan, evfemikasini o‘rganishni, avvalo, chorvadorlar nutqini tadqiq qilishdan boshlash ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ekanligi ta’kidlab o‘tildi. Zero, muammo tarixi chorvadorlik kasb-kori barcha kasbiy sohalarning shakllanishiga asos bo‘lgan yoki bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatgan. Buni T.Tursunova ham gilamchilik leksikasi tarixini yoritish munosabati bilan to‘qimachilik, gilamboflik, zardo‘zlik, mahsi va kavshdo‘zlik kabi professional mashg‘ulotlarning shakllanishi va rivojiga chorvachilik (*chorva va uning mahsulotlari*) asos bo‘lganligini to‘g‘ri ta’kidlagan⁵⁵.

O.T.O‘rinova va T.O‘rinovlar ham chorvachilik O‘zbekiston, umuman, O‘rta Osiyo aholisining eng qadimiy ijtimoiy xo‘jalik shakli bo‘lganidek, chorvachilik leksikasi ham o‘zbek tilining eng qadimiy taraqqiy etgan qatlami ekanligi, ya’ni ular (*chorvachilik leksikasi*) kishi ismlari (*antroponimlar*), joy nomlari (*toponimlar*), kosmos jismlari (*astroponimlar*), ilohiy tushuncha nomlari (*teonimlar*), urug‘ nomlari (*etnonimlar*) sistemasi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaganligini, bular keng planda o‘rganilishi kerakligini uqtirganlar⁵⁶.

Chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlarni quyidagi kichik guruhlariga bo‘lish mumkin :

- chorvachilikka oid oziq-ovqat nomlari: *qurt, suzgi, kelagay, qaymoq, ayron, tandir go’sht, qaynatma, qotqaymoq, palla, chakki, qorin go’sht, qovurdoq, ko‘gan, kapa, qilliq, gupi, to‘shayil, uzangi, ko‘mma;*

⁵⁴ Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Т.: Фан, 1969. . 80-81б

⁵⁵ Турсунова Т. Ўзбек тилида гиламчилик лексикаси тарихидан. Низомий номидаги ТошДПИнинг “Илмий асарлар” и, 3-17 б

⁵⁶ Ўринова О.Т., Ўринов Т. Чорвачилик лексикаси ва ўзбек ономастикаси // Ономастика Ўзбекистана. – Т.: 1989. 176-178 б

- chorva mollari va ularning a'zolari nomini ifodalovchi etnografizmlar: *qo'chqor, taka, echki, shishak, chori, mangi, panji, chibich, tuvcha, g'unajin, baytal, toy, kurra, tuyoq, oshiq;*

- chorvachilik bilan bog'liq etnografik urf-odatlar; *ent solish, taqa-qo'chqor qo'yish, enchi, joyuv, chagana, navbat, dam bermoq, abruk chiqarmoq, barakasini bermoq, dangana, mol tuganlash, uyaz, jaylov, uyur, to'piq olmoq, to'piq yutmoq, xomtalash.*

Ma'naviy madaniyatni ifodalovchi etnoleksemlar etnosning tili, og'zaki va yozma adabiyoti, san'ati, musiqasi, an'anaviy tibbiyoti, e'tiqodi, diniy, axloqiy an'analari va mentalitetini o'z ichiga oladi. Ushbu mavzuiy-tematik guruhga mansub etnografizmlar semantik xususiyatiga ko'ra serqirra bo'lib, o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan.

Gilagay – chorva mollari yangi tuqqanda birinchi sutlari uch kunlikkacha juda quyuv bo'lgan, shu sababli ularni boshqa toza sutlarga aralashtirib pishirish jarayoni.

Bulamiq – xamir ovqatlaridan biri hisoblanib, sut va yo'g' solib tayyorlanadigan quyuv atala.

Bo'yin go'shti – yosh go'dak dastlabki oylarida bo'ynini tutolmasa, uning onasiga bo'yin go'shti yedirilgan.

Govron – podachilar yoki ho'kiz bilan qo'sh haydovchilar tayog'i.

Guppi/guppicha – qalin paxtali, asosan cho'pon va cho'liqlar kiyadigan kiyim.

Go'ja – kelida oqlangan jo'xori yoki bug'doydan tayyorlangan suyuq ovqat.

YORMA (JORMA) – bug'doyning tegirmon yoki yorg'uchoqda katta qilib yorilganidan tayyorlanadigan quyuv ovqat.

Javaqi – kuz vaqtida qilqib olinadigan qo'y juni, u bahorgiga nisbatan kalta va dag'alroq bo'ladi.

Chakki – qatiqdan sizdirib tayyorlanadigan sut mahsuloti, ba'zi hududlarda suzma deyilgan.

Jazliq (*jahalliq*) – egar qoptoli ostiga qo‘yiladigan bir juft yumshoq ot abzal.

Dangana – sherikchilikda biror chorva molini sotib olib, go‘shini o‘zaro taqsimlash.

Jonliq – xudo yo‘liga aziz avliyolarga qurbonlik uchun so‘yiladigan chorva yoki tovuq.

Qilliq(*qirliq*) – chorva mollari junini qirqadigan uzun qaychi.

Julxurs – qo‘y juni ipidan patli qilib tayyorlanadigan gilam turlarida biri.

Kebanak – chorva bilan shug‘ullanadigan kishilar foydalanadigan qishki ustki kiyim.

Ko‘nak – tuya ayroni va qimiz solib qo‘yish uchun teridan yasalgan idish hisoblanadi.

Choriq – qoramolning oshlanmagan bo‘yin yoki bosh terisidan ichkariga qilib tayyorlangan oyoq kiyim.

Chakman – chepka, chepkan-qo‘y junidan yigirilib to‘qilgan kiyim.

Oshhalol – cho‘ponlarning har juma kuni yoki belgilangan biron kunda poda egalaridan oladigan ish haqi.

So‘qim – to‘yda so‘yiladigan maxsus boqilgan bo‘rdoqi mol.

Talqon – qovurilgan bug‘doy uni.

Tulum – qatiq, qimiz saqlash maqsadida echki yoki qo‘yning terisini kesmasdan, uni butunlay shilib ajratib olish yo‘li bilan tayyorlanadigan idish.

Uloq – echkiga tug‘ilgandan olti oygacha ism qo‘yish.

Sangach – yoshiga yetgunga qadar, bir yoshli echki.

Chibich – bir yoshligida, uloqligida tuqqan echki.

Tuvcha – nasldor echki. Tuvcha qurbonligi bormi? (*Boysun*).

Taka – echkining erkagi.

Qo‘zi – tug‘ilgandan olti oygacha bo‘lgan qo‘zichoqning umumiy nomi.

Barra – bir oylikdan uch oygacha bo‘lgan qo‘zichoq.

Shirboz – sutdan ajratilgunga qadar ikki oylikdan olti oylikgacha yetgan, semiz qo‘zi.

Shishak – ikki yoshli, ikki tishli qo‘chqor.

Chori – to‘rt tishli, uch yoshli.

Tishjorg’an- qo‘yning ikki yoshida tishining doimiy chiqib ketishining nomi.

Panji - to‘rt yoshli qo‘chqor.

Xonggi - besh yoshli qo‘chqor.

Monggi- olti yosh va undan kichik yoshdagilarning ismi.

Shirboz qo‘zi- yoshidan har tomonlama yetilgan semiz qo‘zi, onasidan ayrilgunga qadar olti oy.

Sangach - bir yoshli qo‘y.

To‘xli- qo‘yning bir yoshdan qo‘zigacha bo‘lgan nomi.

Tusoq - qo‘zichoq.

Sovliq- qo‘zilagan, sog‘iladigan qo‘y.

Go‘mbik//go‘mmik//kapik//gambik//gammik - yetim qo‘zi sigir suti yordamida qo‘lda boqiladi, buning natijasida qorni katta va yumaloq bo‘ladi. Shularga nisbatan ishlatiladi.

Chibalang - chorvadorlar tilida buxoro qorako‘l qo‘ylari, dumli qo‘ylar.

Digilqo‘zi - qo‘yning qo‘zisini chibalang.

Ko‘rg‘o‘za - chibalang qo‘y va gisa qo‘y aralashmasi.

Chundir - tabiatan kichik quloqli qo‘y.

Quvushquloq - quloq o‘rtasida buklangan joyi bor qo‘y va echkilar.

Qurimchil//vo‘r - ranggi aralash, ranggi bir-biridan farq qilmaydigan mol echkilarda ko‘proq, qo‘ylarda kam uchraydi.

Munchoqli - qo‘y va echkilarda bir yoki ikkita munchoq bo‘ladi

Oqshoq - Shoxning o‘rni oq tuklar va jun bilan qoplangan

Sirg‘ali – qoramolning quloqlarida ortiqcha go‘sht, “sirg‘alar” borligi.

Qushtumshuq, qushkalla – tumshug‘i yoki boshi qushga o‘xshash hayvon.

Gadi qo‘y– suruv ichida juni uzunligi bilan ajralib turadigan qo‘y turi. Bu xususiyat qo‘yni ham katta, ham semiz qilib ko‘rsatadi, *Aka, qo‘yingiz gadi*

ekan-da, men bo'lsam buncha semiz, katta ekan, deb o'ylabman! (Sattor aka kulib)

Qiriq qo'y – qo'ylarning juni tabiiy o'smaydigan, juni kalta qo'y turi bo'lib, doim bir xil holatda turadi. *Aka, qirq qo'yni ham qirqamizmi? ("qirqim"dan)*

Kuyunki – ertachi qo'zilarning saratonda juni sarg'ayib kuygan qo'zi. *Cho'pon, molingizga begona kuyunki qo'shilmadimi?!*

Ertachi//sarioyoq – oktabr-dekabr oylari, qishda tug'ilgan qo'zilar. *Cho'ponlar ertachi qo'zilarni ajratib bozorga olib tushishdi.*

Kechki – aprel-may oylarida, saratonda tug'ilgan qo'zilar.

Jolpin – bir marta bolalagan echki.

Jolpilloq – ayni etilgan, semiz, enasidan ayrilgan uloq.

Qorachalloq – o'zi qora, qulog'i oq uloq. *Bobojon, manavi qorachallog'ingizni menga berasiz-a?*

Shovulloq – kelin to'yda to'y kuni kuyov tomonning vakillari kelinning uyiga borishayotganda, kuyov tomondan kim birinchi bo'lib, ularning yo'lini to'sganga beriladigan sariq rangli uloq.

Molaq//suruv//otar – qo'y, echki, qo'zi, uloq, taka, sarka, qo'chqorlarning birikkan yoki alohida bo'lganda ham haddan ziyod ko'p bo'lishi. Sattor cho'ponning suruvi tog'dan, o'rlamdan qaytibdi.

O'rlam//jog'olam – tabiat in'om etgan, tabiiy, mollarni o'tlatish uchun maxsus qiyalik joy. Mol kechasi o'rib ketsa, o'rlamga yoqalaydi.

Moltoyaq – zarang, irg'ay, tol daraxtlaridan kesib olinib, ma'lum o'lchamdagi cho'ponlarning doimiy hamrohi, tayoqning bir turi. *Askar miltig'i bilan askar, cho'pon tayog'i bilan cho'pon.*

To'bal – peshonasida oq qashqasi bor qo'y yoki echki. *Shu to'bal qo'yingiz hali ham bormi, tog'a?*

Qarabet – sariq, qizil rangdagi qo'ylar nomi. *Aka, qarabetingiz necha pul bo'ldi?!*

Qisir – bir yil tug‘may qolgan, tug‘magan mayda mol. *Bu yil ham ucham qisir qoldimi, cho‘pon aka?*

Qirqim – ko‘klamning oxiridan saratonning boshlarigacha bo‘lgan davr mobaynida qo‘y va echkilarni cho‘miltirib, keyinchalik junini kesish jarayoni. *Arkar qirqimga aytdi, tez borarakanmiz.*

Arkar//istarchi – qo‘y suruvi, otarining bosh cho‘poni. *Rashid, arkarlaring qayerda?*

Qirliq – qirqimda qo‘ylarning junini qirqishga mo‘ljallangan asbob, qaychining bir turi. *Og‘a, hamsiyaning qirlig‘ini olib kel, tez.*

Kulimoq – mollarni qirqishdan, so‘yishdan, biror texnikaga ortishdan oldin ularning oyoqlarini juftlab, krestik shaklda bog‘lash usuli.

Kuluk – kulingan molni tinchlantirish uchun ishlatiladigan undov so‘z.

Yenchi – cho‘ponlarga molini qo‘shganligi uchun to‘lanadigan to‘lov, soliq. *Bir ushoq molning yenchisi qancha ekan?*

Chagana – cho‘ponlarning moliga yenchilab qo‘shiladigan boshqalarning moli. *Bahor keldi - chagana keldi.*

Sholpin – quyrug‘i katta qo‘y. *Odamning ko‘ziga sholpin qo‘y yaxshi ko‘rinarkan-a, aka! Jir - qo‘ylarning dumbasi, quyrug‘i. E, ota, jiri katta qo‘ydi olayiq.*

Ko‘taram//murruk//kappik//o‘limsa//gavara – juda ham oriq, o‘ladigan darajaga yetgan mol. *Qo‘shni, ko‘taram qo‘yingiz yaxshi bo‘lib ketdimi?*

Qora uy// bahor jur// kapa//o‘tov – cho‘ponlarning bahor kelgandan so‘ng mollarini o‘tlatish qulay joyga borib, ko‘ch - ko‘roni bilan joylashgandan so‘ng tiklanadigan cho‘ponlar uyi.

Po‘stak – so‘yilgan ho‘l echki, qo‘ylarning terisiga maxsus ishlov berilib, tayyorlanadigan, odamlar yotishi uchun mo‘ljallangan uy-ro‘zg‘or buyumi. Qishda junli tomoni, yozda esa ichki qismidan foydalaniladi. Biz ham ola po‘stak, asal po‘staklarni ko‘rib qoldik.

Oyin – chorvaga har xil kasallik tegishi (*o‘lat, vabo, oqsoq, qorason, qo‘tir, qora o‘pka*), kasalliklarning umumiy nomi. *Chorvaga oyin oralabdi.*

Ucham – birdaniga uchta qo‘zi-uloqning tug‘ilishi. Bu esa enasiga shartli ko‘chirilgan.

Chuv, chorona – mol tuqqandan keyin hosil bo‘ladigan modda. *To‘balding chuvi tushipti, itga chig‘arip tayla. Qo‘ssi minan otopqa chig‘ar.*

Qumoloq, qiy, shotmoq, shptir, shotira, cholma – qo‘y-echkilarning axlati.

Joyuv – mollarni kechasi, yarim tunda yaxshi semirishi uchun yaylovda boqish. - *Olim cho‘ponning mollari nimaga semiz? – Kechasi joyg‘andan so‘g‘un jirli bo‘latta shunday, o‘rgan.*

Etnografizmlar qo‘llangan asarning milliy ruhi, poetik kuchi, estetik ta‘sirchanligi kuchli bo‘ladi. Ular vositasida ma‘lum bir xalqning milliy o‘zligi aks ettiriladi. O‘sha xalqning madaniyatiga hurmat ko‘rsatish tuyg‘ulari targ‘ib etiladi. Etnografizmlar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim leksik vositalardan biri sanaladi. Kelib chiqishi jihatidan har biri o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, aksariyati qadimiyligi bilan e‘tiborni tortadi. Yosh kelajak avlodlarni o‘z ajdodlarining qadriyatlarini e‘zozlashga o‘rgatib kelingan. Bu qadimiy urf-odatlar, irim-sirimlar voaha aholisining qishloq hududlarida saqlanib qolgan. Shundan kelib chiqib ularning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganilishi, o‘zbek tili etnografizmlarining boyish manbasi hisoblanadi. Surxondaryo aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq e‘tiqodlari, marosimlari, urf-odatalari hamda irim-sirimlari ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan. Surxon vohasining dehqonchilikka va chorvachilikka oid etnografizmlarini o‘rganish jarayonida bu marosimlarni hozirda kam o‘tkazilayotganini hisobga olib, ularni o‘rganish, yozib olish va kelgusi avlodlarga etkazib berish juda muhim deb o‘ylayman.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Har bir tilning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ilmiy tahlil qilish, uni keyingi avlodlarga

yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

2. O‘zbek tilining etnografik leksikasi mintaqaviy asosda to‘liq tadqiq qilinmagan bo‘lib, bu holat biz o‘rganayotgan hudud shevalariga ham taalluqli. Ushbu muammoni to‘liq tadqiq etish xalq hamda til tarixining hozirgacha mavhum ayrim jihatlarini ochishga yordam beradi.

3. Etnografizmlar xalqning lingvomadaniyatidagi milliy xoslangan leksika bo‘lib, ular qadimdan mavjud bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, an’analar va ijtimoiy hayotdagi narsa-hodisalarning nomlaridir. Shunga ko‘ra etnografizmlar qat’iy tartibda birorta xalqqa tegishli lingvistik birliklar sifatida boshqa tillar uchun lakuna hisoblanadi.

4. O‘zbek tilshunosligida etnografik leksika tahliliga oid mavjud 50 ta ilmiy ishlar shu soha bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borish uchun muhim manba vazifasini o‘tasa-da, o‘zbek xalqi etnoleksikasi tilshunoslikning o‘rganilmagan masalalaridan biri sifatida ko‘plab tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

5. Etnografizmlar tematikasi tor doirada, asosan, diniy marosim, an’ana, urf-odatlardan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqimizning maishiy turmush leksikasi – chorvachilik va dehqonchilik etnografizmlarini tahlil etish va boshqa ko‘plab sohalarga aloqador leksik birliklarni etnolingvistik aspektida o‘rganish zarurati mavjud.

II BOB. SURXONDARYO DIALEKTAL DEHQONCHILIK VA ChORVACHILIK ETNOGRAFIKZMLARINING TEMATIK, ETIMOLOGIK TADQIQI

2.1. Dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarining tematik tasnifi.

O‘zbek tili dehqonchilik leksikasi dehqonchilik va zamonaviy agrar sohaning uyg‘unlashgan nuqtasidagi tushuncha va hodisalarni ifodalovchi turli ma’no va ifodalarga ega bo‘lgan terminlardan iboratdir. O‘zbekiston janubida sug‘orma va lalmikor dehqonchilik taraqqiy etgan. Surxon vohasi tog‘, tog‘oldi, adirlik, dasht, dala, cho‘l, tekislikdan iborat bo‘lganligi uchun bu mintaqada azaldan dehqonchilik va dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat, irim-sirim, dehqonchilikka oid bo‘lgan barcha mehnat qurollari va uni nomlab keluvchi atamalar, dehqonchilikning ko‘p turlari taraqqiy etishiga zamin yaratgan.

Ma’lumli sho‘rolar davrida xalqimizning dehqonchilik madaniyati va o‘tmish merosini o‘rganish birmuncha cheklanib qo‘yilgandi. Shu sababli, O‘zbekistonning, qolaversa, Surxon vohasining dehqonchilikka oid noyob so‘zlari majmui o‘rganilmasdan qolindi. Mustaqillik bunday cheklovlarga barham berib, barcha sohalar, xususan, dehqonchilik leksikasini o‘rganish ishlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi.

Akademik M.Muhammadjonov alohida ta’kidlaganlaridek, “O‘lkamiz qadimdan o‘zining o‘rik, shirin-shakar anjir, anor, kishmishi uzum va qovunlari bilan mashhur bo‘lgan. Biroq paxta yakkahokimligi bu ekinlarni ham siqib chiqardi. Mustaqillik davrida ularning esdan chiqarib yuborilgan nomlarini, joylarini, so‘zlarini qaytadan tiklash vaqti yetib keldi. Ular hozirgi va kelgusi avlod uchun saqlanish va rivojlanishi lozim⁵⁷”.

Dehqonchilik ilmi va amaliyoti bo‘yicha nolisoniy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hali o‘zbek tilida, ayniqsa, bu soha bo‘yicha mukammal izohli

⁵⁷ Мухаммаджонов М. Дехқончилиқнинг илмий ва амлий асослари. -Тошкент: Фан, 1990. 15-б

lugʻatlar yaratilmagan. Buning isboti sifatida dehqonchilikka oid soʻzlar tarixini tadqiq etgan R.Egamberdiyev, A.Razzoqovlarning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin. “Mustaqillikkacha boʻlgan davrda dehqonchilik, sugʻorishga doir oʻzbek tilida mukammal asarlar yoʻq. Shu sababli bu muammoga oid oʻzbek tili terminologiyasi ishlab chiqilmagan. Nashr etilgan ayrim maqola va broshyuralarda dehqonchilik, sugʻorish va melioratsiyaga doir terminlarda chalkashliklar koʻp. Vaholanki, oʻzbek xalqi va Oʻrta Osiyoning bu sohada boshqa xalqlari qadimdan boy tajribaga ega. Bu tajribani oʻrganish, umumlashtirish turli (*filologiya, tarix, jugʻrofiya, gidrologiya, texnika va boshqa*) olimlarning hamkorlikda ishlashini taqozo etadi”⁵⁸.

Oʻzbek tili dehqonchilik leksikasi tarixini oʻrganishi shuni koʻrsatadiki, qadimiy va hozirgi kundagi dehqonchilikdagi islohotlar va oʻzgarishlar natijasida, sohada juda koʻplab soʻzlar vujudga kelgan: *tariq, tariqchi, ziroat, ziroatchi, ziroatchilik, dehqon, dehqonchilik, ekmoq, ekin, ekinzor, ekinchi, maydon, marza, pol, paykal, angor, paxtazor, gʻallazor, bedazor, bedapoya, paxta, chigit, bugʻdoy, qovun, tarvuz, tok, tokchilik, tomorqa, uchastka, yer, qoʻriq yer, obod yer, qayir yer, yumshoq yer, koʻpchigan yer, ting yer, dumba yer, omoch, qoʻsh, qoʻshchi, xoʻp, boʻyinturuq, tirkish, gavron, mola, borona, oʻroq, ketmon, bel, cholgʻi, soʻqa, panshaxa, xirmon, xirmonjoy, xirmonchi, arava, aravakash, terim, terimchi, terimchilik, donchilik, hosil, mahsulot, paychilik* kabilar.

Shunday qilib, bugungi dehqonchilikka oid soʻzlar til lugʻat tarkibida birdan kelib qolmadi. U juda uzoq davrlar davomida shakllandi. Oʻzbek xalqining qadimgi ajdodlari qaysi davrdan boshlab dehqonchilik bilan shugʻullangan boʻlsa, oʻsha davrlardan boshlab dehqonchilik bilan bogʻliq soʻzlarni yaratgan va oʻz nutqlarida qoʻllay boshlagan.

Dehqonchilikka oid koʻplab soʻzlar xalqimiz uchun tushunarli boʻlgan soʻzlar majmuini tashkil etadi. Chunki, Oʻzbekistonning qaysi hududida

⁵⁸ Эгамбердиев Р., Раззоков. А Ўзбекистонда кўрик ерларни ўзлаштириш ва мелиорация тарихидан.- Тошкент: Фан, 1984. 9-бет

yashamaylik, qaysi millat vakili, qanday kasb egasi bo‘lmaylik dehqonchilik bilan shug‘ullanadi⁵⁹.

Turkiy tillar rivoji tarixida o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar asl turkiy til terminlar bilan birga sinonim-dublet sifatida qo‘llanilib kelinganligiga ko‘plab misollar mavjud. Masalan, yordamchi, ko‘makchi **“hasharchi”** so‘zlari keng qo‘llanadi va faol ishlatiladi. Biroq ular bilan bir qatorda rus tilidan kirib kelgan so‘zlar ham ishlatiladi. Har ikkala dubletni ham ko‘pincha bir shaxs nutqida uchratamiz. Umumturkiy **murch//burch** **“qalampir”** so‘zi o‘zbek adabiy tilidan murakkab so‘z tarkibidagi etimologik jihatdan yashirin komponent sifatida **“qoramurch”** ichidagina saqlanib qolgan. **“Murch”** ma’nosida esa eng ko‘p forsiy qalampir etnoleksemasi qo‘llaniladi. Ayniqsa, shevaga xos bo‘lgan dublet-sinonimlar mavjudligi og‘zaki nutq, tabiatiga ko‘ra o‘zida mavjud so‘z zahirasi va ularning leksik-semantik ma’nolari bilan cheklanib qola olmaydi. U doimo atrofimizdagi voqelikka xos turli-tuman buyum-hodisalarni har tomonlama, to‘liq va aniq ta’riflash maqsadida sinonimlarga ehtiyoj sezadi. O‘z ichiga sinonimlarni ham olgan leksik o‘zlashtirishlar aynan ana shu til ehtiyoji tufayli kelib chiqadi.

Turkiy tillar guruhi dehqonchilik leksikasining shakllanishida hozirgi turkiy, shuningdek, mo‘g‘ul, tungus-manjur va boshqa qabilalarining ajdodlari muayyan, barqaror til strukturasi ega alohida xalqlar sifatida ajralib chiqqan paytni eng qadimgi davr hisobga olish lozim.

O‘zbek tili dehqonchilik etnoleksikasida O‘rxun-enasoy yozma yodgorliklari va sheva leksikasida quyidagi leksik parallelliklar mavjud: qoraqalpoq – **“ko‘kar”**, qozoq - **ko‘ga‘r**, turkman - **goka‘r**, **goga‘r**, uyg‘ur - **koker**. **Tari**: dari- **“tariq”**- qoraqalpoq, qozoq - **tari**, turkman - **tarig**, dari - tuva. **Tara-oltoy**, **taran** - qirg‘iz, **taru** – **“tariq”**, uyg‘ur - **tariq**.

Ishlab chiqaruvchi qurollar nomalari: **Tutqich**: qoraqalpoq, qozoq - **tutqish**, **tutka**; turkman - **tutguch**: tuva, hakas - **tuda**; uyg‘ur - **tutkuch**.

⁵⁹ X.Жабборов. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. –Қарши, 2016, 9 б

Yer va dala nomlar: Yer: qoraqalpoq, qozoq - jer; turkman - yer: tuva - cher; hakas - chir; oltoy - jer; qirg'iz - jer; uyg'ur - yer.

Bu so'zlar termin sifatida ishlatilishidan tashqari, umumxalq etnoleksikasi tarkibida ham faol qo'llaniladi.

Shunga qarab, dehqonchilik etnografizmlarini tematik guruhlariga bo'lib tadqiq etish natijasida quydagilarni ajratishimiz mumkin.

1. **Bog'dorchilik (mevachilik) bilan bog'liq etnografizmlar:**

Bog'dorchilik Surxon vohasi aholisi uchun muhim yumushlardan sanaladi. Voha aholisining ko'p qismi anor, uzum, limon yetishtirish bilan shug'ullanadi. Bu jarayonda albatta aholining o'ziga yarasha sir-asrorlari, urf-odatlar mavjud bo'lib, asrlar davomida saqlanib, avloddan-avlodga yetib kelmoqda. Xususan, uzum etishtirishda aholi qish tugab bahor kirib kelishi oldi, uzumlarni shohlarini kaltalatgan. Bu shunchaki amalga oshirilmaydi deydi voha bog'bonlari, kesish jarayonlari ham ahamiyatli bo'lib, barmoqning "ikki bog'ini" hajmida kesilib, taraladi. "Taralish" ham ahamiyatli bo'lib, uzumlar chiroyli shaklga keltirilib, ular hosilga kirishi uchun qulay muhit yaratiladi. Uzum pishish jarayonlarida ham o'zgacha qarashlar borki, birinchi "chilgi" uzum pishib yetiladi. "Chilgi" so'zi ertapishar ma'nosini bildirib, hamma mevalarga nisbatan ishlatiladigan so'z hisoblanadi. Uzumlar pishib, yetilib, terib olingan so'ng uni maxsus usullarda quritish jarayonlari boshlanadi. Bunda ham bog'bon, dehqonlarni o'zining sir-asrorlari borki, ularni maxsus usullarda amalga oshiradi. Uzumni quritilgani "mayiz" hisoblanib, uni turli usullarda quritiladi. Bog'bonlarni aytishi bo'yicha mayiz ikki xil usulda quyosh nurida va soyaki quritiladigan mayizlarga bo'linadi. Ularni quritish jarayonidan oldin ham o'ziga xos udumlar bor, uzum tozalanib, maxsus "ishqor" deb nomlanuvchi dalada o'sadigan "sho'ra" o'simligi suvi siqib olinib, unga uzumlar bir botirilib olinadi. Shundan so'ng quritiladigan uzumlar yumshoq va yoqimli bo'ladi. Uzumning foydalari bisyor hisoblanib, undan "shinni" qilish udumi ham bor, bunda uzumning o'zi qaynatilib, hech qanday shira aralashtirilmaydi. Bir necha soatlab qaynatilgan uzumdan, "shinni" yuzaga kelib, voha ahli orasida ming

dardga davolash hisoblanib, u necha yillar saqlansa uning davolash xususiyati yanada ortishi aniqlangan. Shuning uchun aholi bir-necha yillar davomida “shinni”ni saqlab, keyin iste’mol qilishgan.

2. **Donchilik (g‘allachilik) bilan bog‘liq etnografizmlar.**
3. **Sabzavotchilik bilan bog‘liq etnografizmlar.**
4. **Paxtachilik bilan bog‘liq so‘zlar: chigit, paxta, yagana.**
5. **Polizchilik bilan bog‘liq so‘zlar:** dehqonchilikda oy nomlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, shunga qarab dehqonlar ekin ekish yoki yig‘ishtirib olishni ham belgilashgan.

Burj nomlari qadimdan saqlanib kelgan shunga qarab ham ekin ekish va oyni qanday kelishi ekinning qanday bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi degan ham ma’lumotlar berilgan.

Yaxshi kelsa hut,

Kadi-kadi sut,

Yomon kelsa hut

Keragada put.

Bu yerda aytilmoqdaki, hut (*shamsiya yil hisobida oyni o‘n ikkinchi oyi 22-fevraldan 21-martgacha*) yaxshi kelsa, o‘t-o‘lanlar, yaylovlar yashillikka bo‘yaladi va u orqali chorvalarning qorni to‘yib, kadi-kadi sut beradi, agar hut yomon kelsa quruq keladi o‘t o‘smaydi chorva ochqolib **“keraga”**, ya’ni qora uyni tayog‘iga oyoqlari o‘xshab, ozib qoladi deyilmoqchi. Hut oyida har xil o‘n kunliklar bo‘lib, **“aziz”** qishning oxiri kunligi bo‘lib, 5-martdan kiradi deb hisoblashadi dehqonlar, bu kunlikda sovuq bo‘lib 10-martda tugaydi deb hisoblashgan. Keyin **“Ahmal-dahmal”** kiradi, bu kunlik 10-17 martgacha davom etadi, bu kunlarda qish bilan bahor urushadi, chang to‘zon ko‘tariladi va oxiri qish yengilib, patini olib chiqib ketadi deb hisoblashgan.

Hamal keldi,

Ekinlarga amal keldi.

Bu yerda “hamal” shamsiy yil hisobida yil boshi, birinchi oyi hisoblanib, 22-martdan boshlanadi. Shundan keyin umuman sovuq chiqqan hisoblanib

ekinlar uchun qulay vaqt bo‘lib, bahorgi ekinlar ekila boshlaydi. Oy boshi mart oyi hisoblanib, ko‘klam oyi dehqonlar uchun muhim hisoblanadi. Yog‘ingarchiliklar mo‘l bo‘lib, ekinlar ekiladi.

Savr keldi

Ekinlarga davr keldi

Bu vaqtda, ekinlar unib chiqadi, ko‘karadi, yashnaydi. Dehqonlar shuning uchun ekinlarda davr keldi deb qarashadi.

Asad, ekiningni yasat!

Asad oyida ekinlar unib o‘sib, parvarishlashga muhtoj bo‘ladi. Bu davrda ekinlar o‘tlari olinadi, taraladi, ekinlar tekislanadi, chiroyli shaklga keltiriladi. Bu oylar dehqonlar uchun muhim hisoblanib tabiat hodisalari, oy nomlariga qarab ekinlarini ekishgan va yig‘im-terim jarayonlari ham o‘sha oylarga bog‘liq bo‘lgan. Masalan, dehqonlar Mezon oyidagi *mezon shamoli* uchmaguncha ekinlarni yig‘ishtirib olishmagan. Chunki, *mezom shamoli (xalq talaffuzida)* egan mevalar, poliz ekinlari, sabzabotlar qishi bo‘yi saqlanadi, chirimaydi deb hisoblanadi. Uni yegan barcha mevalar bahorgacha bemalol saqlangan. **Mezom shamoli** vaqtida oq parga o‘xshagan narsa uchib, odamlar uni shifobaxsh hisoblashgan. Uni yesa odam kasal bo‘lmaydi, tishiga surtilsa, tish og‘riqlarini qoldiradi deb hisoblashgan. Yana poliz ekinlarida qovun, tarvuz, sholg‘omlar “**qavs**” oyida “**qavs suvini**” ichishi kerak deb hisoblashgan, undan keyin shirin bo‘ladi va yaxshi saqlangan. “**Qavs suvini**” ichgan ekinlar bemalol qancha vaqt bo‘lsa saqlanadi deyiladi dehqonlar bilan suhbat jarayonlarida.

Til leksik qatlamida milliy madaniy ma‘no ifodalovchisi bo‘lgan etnoleksemalar qardosh xalqlar, umuman, millatlar o‘rtasidagi mushtarak bo‘lgan etnik, lingvistik, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ma‘lumki, **chorva**⁶⁰ so‘zining etimologik jihatdan kelib chiqishi **chor+po**-to‘rt oyoq, **chorvador** esa to‘rt oyoqlisi bor (*-dor forscha qo‘shimcha bo‘lib, doridan bor, ega degan ma‘noda*), chorvaga ega shaxs.

⁶⁰ Айдарав Т. Ареальная характеристика диалектной лексики казахских говоров Узбекистана. Автореф. дисс...канд. филол. наук.– Алма-ата, 1980. – Б. 37-42.

Chorva ma'nosi keyinchalik kengayib, hayvon⁶¹ (*arabcha: tiriklik*), mol (*arabcha: davlat, boylik*) chorva boquvchi shaxs esa **cho'pon** deb yuritilgan.

Avvalo, chorbachilik leksikasini, chorva nomlari va atamalarini, chunonchi, **hayvon turi** (*tuya, yilqi, ho'kiz, eshak, qo'y, echki, cho'chqa, kiyik, quyon kabi*); **jinsi** (*erkak, urg'ochi, nar-moda (nar-moda ko'proq parrandalarga nisbatan qo'llaniladi); lo'k, nor, moya, tuya; ayg'ir, ot, biya, baytal; ho'kiz, buqa, sigir, g'unojin; hangi, mocha, moda; qo'chqor, sovliq; taka, sarka, echki; qabon, to'ng'iz, megajin; quralay, g'azol, g'azola*); **yoshi** (*bo'taloq, toyloq, tuya; qulon, toychoq, g'unon, dunon, ot; buzoq, tana, juvona, ho'kiz; qo'zi, sangach, to'xli, tusoq (dusog'), dagar, shishak, chori, panji, hangi, mangi; uloq, sangach, chibich, tuvcha, echki; churpi, to'rpi, to'rroy, cho'chqa kabi*) bilan bog'liq atamalarni bilmasdan turib⁶², uning tarixini o'rganib bo'lmaydi.

Shu o'rinda biror kasb egalari, masalan, chorbadorlar turmushida qo'llaniladigan bir-qancha etnoleksemalar borki, ular: *qo'y qochirish, to'l, to'la, choroyna, uvuz (og'uz), bo'chalamoq, palla, kelagay, suzgi, ko'nargi, tomizg'i, uyutma, oqlik, qo'rtmoq, oqizmoq, iydirma, enchi, chagana, og'aliq, qo'shoq, ko'kan, kuvi (kubi), tulup, pishgak, qo'ton, qo'ra, enlamoq, sangach, tuvcha, to'xli, shishak, dagar, chibich, chuv, qo'hak, uyg'onmoq, qochmoq, to'xtamoq* kabi yuzlab so'z, ibora va ifodalarni qo'llaydilar.

2.2. Dehqonchilik va chorbachilikka oid dialektal etnografizmlarning etimologik tasnifi

Ma'lumki, dialekt va shevalar tarixiy yodgorlik bo'lib, ular adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiydir.⁶³ Shunga ko'ra, shevalarda

⁶¹ Нишонова Н. Ўзбек тилида «хайвон» архисемали лексемалар майдонининг мазмуний тахлили. Филол.фанл.номз. ...дисс. автореф. – Т., 2000.

⁶² Файзийева Х. Бойсун, Шўрчи ўзбек шеваларида отларнинг ёши, туси, жинсига кўра номланиши // Тилшуносликнинг долзарб масалалари ва Нутқ маданияти муаммолари (Республика конференция материаллари). – Термиз, 2004.81-84 б;

⁶³ Мелиоранский П.М. Араб филолог о турецком языке. СПб.1900

saqlanib kelgan ayrim soʻzlar, soʻz shakllari, fonetik hodisalar, morfologik elementlar oʻzbek tili tarixiy grammatikasi uchun ishonchli material va muhim manba hisoblanadi. Turkiy xalqlarning mushtarak merosi boʻlgan ushbu yodgorliklar oʻzbek xalqi tarixi, tili tarixi, kelib chiqishi, davlatchilik tarixi, uning dialektlarini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yozma yodgorliklarda hozirgi oʻzbek shevalari va dialektlarining “qorluq-chigil-uygʻur”, “qipchoq” va oʻgʻuz lahjalariga xos boʻlgan fonetik, grammatik, leksik-semantik oʻzgachaliklar mujassam. Mahmud Qoshgʻariyning taʼbiri bilan aytganda, «Har bir qabilaning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra qiyosiy qoidalar tuzilgan.⁶⁴

Mahmud Qoshgʻariy leksikolog, leksikograf sifatida ilk turkiy tillarning lugʻatini yaratgan. Ushbu lugʻat asar juda qimmatli maʼlumotlarga ega boʻlib, undan qadimgi soʻzlarning qoʻllanilish doirasini bilishimiz mumkin.

Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻatit-turk” asari XI asr turkiy xalqlar tillarining fonetik, morfologik va leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari mujassam, undan hozirgi turkiy xalqlarning har biri oʻz tili va dialektlarining shakllanishi, takomillashish, taraqqiy etish bosqichlari, etnogenizi, davlatchilik tarixi, urf-odatlar, ovchilik, baliqchilik, chorvachilik, boy dehqonchilik va savdo-sotiq madaniyati, keyinchalik esa ota-bobolarimiz konlarda ishlagan, mis, temir eritish, metallardan turli-tuman harbiy qurollarni yasash, kemachilik, toʻquvchilik, binokorlik, shuningdek, aksariyat hollarda moddiy madaniyat (kiyim-kechak, poyafzal, bosh kiyimlar, uy-joy, roʻzor anjomlari, asbob-uskanalar, bezak, qurol-aslaha, xoʻjalik anjomlari, muzika asboblari), etnonim va toponimlar, qabilaviy boʻlinishlar, qarindoshlik va quda-andachilik terminlari, unvonlar, oziq-ovqat nomlari, oy hamda hafta kunlarining nomlanishi, bolalar oʻyinlariga tegishli maʼlumotlarni beruvchi yagona ensiklopedik manbadir.

Asarning “Lugʻat” qismida turkiy xalqlar, xususan oʻzbek xalqining moddiy va nomoddiy madaniyati: toʻy, oila, qadimiy xalq oʻyinlari, turli urf-

⁶⁴ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент . Ўқитувчи:. 1982. 47-б.

odatlar. irim-sirimlar, dehqonchilik va chorvachilikka oid kasbiy atamalar, har xil ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq etnografik nomlar keltirilganva izohlangan.⁶⁵

Mahmud Qoshg‘ariy asarida izohlanayotgan har bir so‘z o‘sha davrdagi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy bo‘lsa, unda shu so‘zning qaysi tilga tan ekanligi haqida so‘z yuritilmaydi. Agar izohlanayotgan so‘z o‘sha davrdagi turkiy tillarning barchasiga tegishli bo‘lmasa, faqat bir xalq yoki muayyan bir toifa tiliga xos o‘zgachalik, ko‘rinishi bo‘lsa, unda uning qaysi xalqqa tegishli ekani aytilib, izohlanadi. Masalan, ”Devoni lug‘ati turk” da **“əkin”** - *ekin ekiladigan yer* (1,197), o‘g‘uz shevasida **“əkin”**, qipchoq shevasida **“yegin: egin”**, ”Devoni lug‘ati turk” da **səchə chumchuq** (1,238), o‘g‘uz shevasida **sechə**, qipchoq shevasida **Chimchiq; orken qayish** (1,132), o‘g‘uz shevasi va qipchoq shevasida **arqan, yip, djip; mamuq, momiq, bo‘sh** - *chigitidan ajratilgan paxta* (1,300), o‘g‘uz sheva va qipchoq shevasida - **paxta, mamiq, bo‘sh, yumshoq, chigitidan ajratilgan paxta, uzluk** - *ag‘il, molxona* (1,124), o‘g‘uz shevasida **ag‘il**, qipchoq shevasida **qo‘ra, malxana**; arg‘ucha, arg‘u va shu toifadagi tilga xos **benek - don, urug‘** (1,367) so‘zi - o‘zbek adabiy tilida danak, o‘g‘iz shevasida **bejanək**, qipchoq shevasida **mujənək, mujenek** – o‘rik yoki shoftolining danagi ma’nosida qo‘llanadi.

“Devon”dan leksik qatlam orasida bir dialektida ma’lum ma’noda, boshqasida ikkinchi ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlar ham keng o‘rin olgan. Janubiy o‘zbeklarda **“ulush, hissa”**, boshqa turklarda **“iḥək sigir”** ma’nosida, o‘g‘uzlar **“toshbaqaning erkagini”** shu so‘z bilan atagan (1, 135), o‘zbek tilining to‘rtko‘l-ellikqal’a, buxoro, shimoliy o‘zbek o‘g‘uz tip shevalarida **inək-sigir** ma’nosiga ega, boshqa turklar **oshxonani ashliq**, o‘g‘uzlar **bug‘doyni ashliq** deganlar (1, 137), Janubiy o‘zbek shevalarida egulik uchun ajratilgan **don, oziq-ovqat mahsuloti**, boshqa turklar **qurt (hashorat)ni qurt** deganlar, o‘g‘uzlar **bo‘rini kurt** deb ataganlar (1,328), hozir ozarboyjon, turkmanlar **bo‘rini kurt**

⁶⁵ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021.24 бет

deydi, o‘zbek xalqining «*Sayotxon Hamro*» dostonida ham kurt bo‘ri hisoblangan.

Turkiy xalqlar qadimdan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan xalq hisoblanadi. Shu sababli, chorvadorlar turmush tarzida ko‘plab ur-odat, irim-sirim, predmetlar vujudga keladi. “Devoni lug‘oti-turk”da keltirilgan dehqonchilik, chorva va chorvachilikka doir etnografizmlarning ayrimlari hozirgi kunda ham Surxondaryo vohasi aholi nutqida qo‘llanilib kelinmoqda. Lug‘atda chorvachilikka va dehqonchilikka oid ko‘plab terminlar uchraydi. **Örk**-qoramollarning boshvog‘i, tushov, ot oyog‘ining bog‘i (31), **irk**-qo‘y; to‘rt yosh qo‘yga nisbatan ishlatiladi (31); **ud** – **sigir** (chigilcha). Turklarning qabul qilgan o‘n ikki yilida birida ham “ud” yili mavjud bo‘lgan, (78) **orat** - to‘q qizil va sariq ranglar orasidagi ot, **in (in)** – qo‘y qiyi (34); **aritti** (aritti) ol qozı aritti – u qo‘zi va boshqa hayvonlarni axta qildi [moyagini chiqarib oldi]. Bolaning xatna qilinishiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi (94) **ag‘il** - og‘il; qo‘y og‘ilxonasi (74); **Aran** – otxona (75); **oru** - o‘ra. Bug‘doy, sholg‘om va boshqa narsalarni saqlash uchun qazilgan chuqur (77); **kökän** (ko‘kan) – buzoq va qo‘zichoqlarning arqonlari hamda sog‘iladigan biyalarning sog‘ishga bog‘lanadigan arqonlari (166); **čünäk** (chungak) – yog‘ochdan qilingan sut sog‘adigan idish, yog‘och chelak (298); **yalig‘** (yalig‘) – egarning oldingi va orqa qoshlari (328); **yalu** (yalu) – toylar bog‘lanadigan arqon (331); **yulič** (yulich) – echkinning mayin yungi, **tivit** (332); **yayğuq** (yayg‘uq) – baytal emchaklarining uchi (332); **yular** (yular) – otning yugani (332); **yanliq** (yanliq) – cho‘pon to‘rvasi (339); **qor** (qo‘r) – qatiq tomizg‘isi (364); **qom** (qo‘m) – tuya polani, yuk ortiladigan egari (369); **yunaq** (yunaq) – eshak, ho‘kiz va shunga o‘xshash yuk ortiladigan hayvonlarning yuk ostidan qo‘yiladigan to‘qimlari (332); **tayaq (tayaq)** – tayoq, suyanchiq (380); **čewšän** (chevshang) –qo‘y yungini qirqadigan katta qaychi (454).

Surxondaryo viloyati tog‘li chorvador aholi nutqida *tayoq, qo‘m, ko‘kan, qo‘shdi, qo‘r, chungak* kabi etnografik leksemalar tez-tez qo‘llanadi.

Yaylovlarning ekin maydonlariga o'tishi, yashash tarzining o'zgarishi va boshqa omillar sabab chorvachilik sohasi faoliyati torayib bormoqda. Biroq, milliy qadriyatlar qayta tiklanayotgan hozirgi paytda chorvador "tili", uning poetikasi... – etnolingvistik, etnografik, etnopsixologik, lingvopsixologik, mifologik aspektlarda tadqiq qilinishi, etimologik, izohli lug'atlar yaratilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda⁶⁶. Asarda keltirilgan leksik qatlam turkiy xalqlar hayoti, turmush tarzi, falsafasi, ruhiyati, tafakkuri, taraqqiyoti haqida juda ko'p ma'lumot beradi, ularni o'zida aks ettiradi. Butunlay yoki qisman o'troqlashgan turkiy chorvador xalqlar hayoti bevosita dehqonchilik bilan ham bog'liq bo'lgan. Shu boisdan, asarda dehqonchilik bilan bog'liq etnografik leksemalar ham uchraydi: **op** (o'p) – (jarangsiz bā bilan) xirmon yanchuvchi ho'kizlarning yetakchisi (28); **amač** (amach) – omoch, omoch - **bo'yinturuq**; dehqonchilik asboblaridan (35); **ügüt** - bug'doy va shuning kabilarni yanchish, **ügitchi** - tegirmonchi; bug'doy va boshqa donlarni yanchuvchi; **ökür** – tariq (36), **ögür** (I) - kunjut; **ögür** (II) - poda, qo'y, eçki, kiyik; tuyalar podasiga nibatan ishlatilgan; (36) **añiz** - angiz; bug'doy va boshqa donlar o'rilib olingach, erda qolganlar (to'kilgan va cho'p qismi) ga nisbatan ishlatiladi. **Užluq** - sigirlarning yotadigan joyi, og'il, molxona (arg'uçha) (124); **izlik** - turkiy xalqlarda hayvonning terisidan yasalgan chorig'i. (129); **ikdük** - sut va qatiqdan ishlangan, suzmaga o'xshash egulik narsa (130); **émshän** - po'stin qilinadigan teri (133). **Ažri** - **ayri**; bug'doy sovurish uchun qo'llanadigan asbob (146); **eskü** - elak, g'alvir (149); **tış** (tish) – omoch tishi (366); **boyunduruq** (bo'yunduruq) – bo'yinturuq (384); **apaqi** (apaqi) – ko'z tegmasin uchun bog'cha va polizlarga qo'yilgan qo'riqchi (68); **yatiñ** (yating) – yung taraladigan charx (449); **tapčañ** (tapchang) – dasturxon kengligidagi uch oyoqli narsa. Bog'bon uning ustiga chiqib, ishkombon – so'ridan uzum uzadi (454); **kewsän** (kevsang) – kapsan. Xirmon yanchilgandan so'ng kelgan kishiga beriladigan

⁶⁶ Омонтурдиев А. Чорвачиликка оид сўз ва атамаларнинг қисқача тематик эвфемик луғати. – Тошкент, 2015. 8-б.

don hadyasi (454). Ushbu leksemalarning aksariyati hali ham dehqonchilikning qadimiy shakllaridan foydalanib turuvchi Surxondaryo viloyati tog‘li hududlarida iste’qomat qiluvchi dehqonlar nutqida faol qo‘llanadi.

Xalqimiz turmush tarzi, madaniyati bilan bog‘liq urf-odatlar, irim-sirimlar, an’analar etnomadaniy tushunchalar asosan, nasriy asarlarda qisman lug‘atlarda uchraydi.⁶⁷ Xususan, ”O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da ham dehqonchilik va chorvachilikka oid terminlar mavjud bo‘lib, ushbu lug‘atda ham o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismi bo‘lgan qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarida so‘zlashuvchi aholi nutqida hozirda mavjud bo‘lgan etnografik leksemalarni uchratishimiz mumkin.

Ayil - egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog‘lanadigan qayish hisoblanadi. (21) Masalan, *Odatdagiday, otning ayilini bo‘shatib qo‘ydi, ot qorinbog‘dan dam oladi, bemalol nafas rostlaydi. Chingiz Aytmatov (Qiyomat)* Qadimiy turkiy so‘zlardan bo‘lib, ”doira shaklida harakat qilish”, ma’nosini anglatadi: **ay – fe’liga + il qo‘shimchasini qo‘shish bilan = ayil > äyil yasalgan.**

Ariq - kichik suv oqimi yo‘liga nisbatan. (31) Bu turkiycha so‘z bo‘lib, qadimgi “oq” - ma’nosini ifodalagan – [a:r] fe’liga + - (i) q qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan = ariq > äriq.

Belkurak - er qazish, sochilgan narsalarini to‘plash uchun maxsus mehnat quroli (45). Bu qo‘shma so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida o‘rta ma’nosi bilan qatnashgan “bel” so‘zini “surib to‘plash asbobi” ma’nosidagi “kurak” so‘zi bilan birlashib: **bel + kuräk = belkuräk.**

Bulamiq-sut bilan undan tayyorlanadigan atalasimon ovqat. (67) *Bir-ikki kun sutli ovqatlar, bulamiq eb tursinlar. (Mirmuhsin).* Bu qadimgi taomlardan hisoblanib, qadimgi turkiy so‘z”qorishtir” ma’nosidagi “bula” fe’lidan + “miq” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan.

⁶⁷ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лекцикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021.36 бет

Bo'yincha - ish hayvoni bo'yniga kiydiriladigan omoch abzali yoki "homut" ham deyilgan. (74) *Husniboyning dadasi Omonboy bo'yincha tikar edi (G'afur G'ulom)*. Bu so'z "boyin" otidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi – chä qo'shimchasi bilan hosil qilingan bo'lib, asli "kichik bo'yin" ma'nosini bildiradi.

Jabduq - ot abzallari. *Arava ham ertasi kuni keltirilib, Xolmirza akaga otga jabduqlar olish, aravaga temir qoqtirish uchun shaharga tushib ketdi (A.Qodiriy, Obid ketmon)* Bu ot qadimgi turkiy tilda "**jihazla, hozirla**" ma'nosini anglatgan **jabdi** - fe'liga –q qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan.

Sovliq - urg'ochi qo'y.(292) *Qo'y sog'dirishning o'ziga yarasha gashti bor. Ona sovliqni bo'ynidan quchib turasan. U tipirchilamasligi kerak (Sh.Xolmirzayev.Og'ir tosh ko'chsa)*. Qadimgi turkiy tilda "emchakdan chiqarib ol" ma'nosini anglatgan **sag' - fe'lidan – liq** qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yasalgan, ya'ni "**sog'iladigan hayvon, urg'ochi qo'y**" ma'nosini anglatadi.

Tappak [tappi] - chorva mollarining go'ngidan qilinadigan yalpoq shakldagi quriltirilgan yoqilg'i, tezak(321) Bu ot **täp** - tovushga taqliq so'zdan va –(ä)k qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan bo'lib, qoshimcha qo'shilish natijasida **p** undoshi ikkilanib; **täp + äk= täpäk > täppäk**.

Tariq - donini oqlab, so'k olinadigan boshqoli o'simlik. (322) Bu ot qadimgi tilda "ekin maydoni" ma'nosini anglatgan **tar- otidan – ы** qo'shimchasi bilan yasalib, "ekin ek" ma'nosini anglatgan fe'lga -g' qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan hosil qilingan.(**tar + i**) + g' = **tarig'** > **tariq** bu ot dastlab donning barcha turlarini bildirgan, keyinchalik ma'no torayib faqat bir turini ifodalagan.

Muayyan soha ilmiy leksikasining ichki tarmoqlari xususiyatlarini ko'rsatish uchun uning leksikasiga xos sohaviy semik xususiyatlari va mikrosistemalardagi ichki modifikatsiyasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga egadir. O'zbek tilining dehqonchilik terminlar tizimi ham boshqa leksik-terminologik tizimlarda kuzatilganidek o'zbek tili

ichki imkoniyatlari va tashqi manbalar hisobiga ham boyib, rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda mavjud tarixiy adabiyot va manbalar, lugʻatlarga asoslanib oʻzbek tili dehqonchilik terminlarini asosan turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili, arab, fors, rus va boshqa tillarga mansubligini belgilaymiz. Shunga monand, oʻzbek tili dehqonchilik terminlarini oʻz va oʻzlashganlik nuqtayi-nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) oʻz qatlam (umumturkiy va oʻzbekcha terminlar);
- 2) oʻzlashgan qatlam:
 - a) arabcha terminlar;
 - b) forscha terminlar;
 - c) ruscha terminlar;
 - d) baynalmilal terminlar.

Oʻzbek tilining tarixi bilan bogʻliq yozma manba va tadqiqotlarga koʻra, **oʻzbek tilining umumturkiy va oʻzbekcha dehqonchilik terminlari** sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: *ariq, arpa, bugʻdoy, burchoq, boʻyinturuq, irmoq, boshqoq, alang, chechak, maysa, kunjut, olma, ekin, ekma, sochma, terim, urugʻ, ildiz, tegirmon, buloq, er, tuproq, otiz, yaproq, dala, choʻl, qumloq, qumoq, suv, oʻzan, dengiz, tomir, tarvuz, tariq, chiy, boʻgʻim, uzum, qoʻsh, qatqaloq, quloq, jilgʻa, oʻra, koʻl, chopiq, taqir, adoq, balchiq, oʻpqon, oqim, oqizoq, yoyilma, uya, sugʻorish, ekish* kabilar⁶⁸ Bundan shuni anglashimiz kerakki, oʻzbek tili turkiy tillarning tarkibiga kiruvchi qadimiy va oʻz yozuv tarixiga ega til sifatida tarixiy leksikaga xos boʻlgan umumturkiy soʻz va terminlarni ham saqlab kelish barobarida oʻz ichki imkoniyati hisobiga ham boyib bormoqda. Qayd qilingan soʻz va terminlar faqat lisoniy hodisagina emas, balki dehqonchilik tarixi va madaniyatidan ham dalolat beruvchi lingvokulturologik hodisa ham hisoblanadi. Sof oʻzbek soʻzlari oʻzbek tilining oʻzida ikki usulda yasaladi: a) semantik usul orqali - maʼno taraqqiyoti orqali yangi leksemaning vujudga kelishi. masalan: **I. Bel leksemasi** - Orqa suyakning

⁶⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг етимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – 284 б.;

(umurtqa pog‘onasining) pastki qismi. *Odamning beli. Otning beli. Beli bukchaygan. Bel muskullari. Bel og‘rig‘i sifatida ishlatsak, II. Bel* - pastki qismi temir, yuqorisi yog‘ochdan tuzatilgan dehqonchilik predmeti. Bundan asosan er ag‘darish, pal tuzatish hamda suv tutish uchun foydalaniladi.

b) affiksatsiya usuli orqali - qo‘shimcha qo‘shish orqali chetdan kirib kelgan so‘zlar o‘z qatlamga aylanadi. *Paxta (toj)*⁶⁹ + *chi (o‘zb)* = *Paxtachi (o‘zb)* , *temir (umumturkiy)* + *chilik (o‘zb)* = *temirchilik (o‘zb)* leksemasi o‘z qatlamida so‘z hosil qilmoqda .Shunga ko‘ra,o‘z qatlam dehqonchilik terminlarini ham guruhlarga ajratishimiz mumkin: a) *Fors-tojikcha asosli o‘z qatlam dehqonchilik so‘zlari*.O‘zbek tili leksik tizimida fors-tojik so‘zlar ancha ni tashkil etadi. Shu asosda esa yasovchi affikslar orqali fors-tojikcha asosli dehqonchilik terminlari hosil qilinadi: *dehqonchilik, bahorgi, gullash, yaganalash, payvandlash, g‘allachilik, shonalash, changlanish, payvandlash, shudgorlash, marza olmoq, shudgor olmoq, yagana qilmoq* kabilar. Fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlarga *-la,-lan,-lash,-gi,-chi,-chilik* so‘z yasovchi affikslar va *olmoq,qilmoq,bermoq* kabi yordamchi fe‘llar orqali o‘zbek tilida ko‘plab qo‘shma fe‘llar hosil qilingan; b) *arabcha asosli o‘z qatlam dehqonchilik terminlari*. Yasalash asosi arabcha bo‘lgan dehqonchilik terminlari ham o‘zbek tilida anchagina uchraydi. Yuqorida keltirilgan *-lash,-la,-chi,-chilik* kabi affikslar yordamida arabcha asosli o‘z qatlamli so‘zlar hosil qilishda foydalaniladi: *ijarachi, hasharchi, hosilotlik kabi*; c) *auscha va baynalminal asosli dehqonchilik terminlari*. O‘zbek tili leksik qatlamida ruscha va baynalminal so‘zlarni ham kam deb bo‘lmaydi. Bunday tillardan o‘zlashtirilgan jarayonlarni anglatuvchi terminlarga *”asos-siya”, ”asos-atsiya”, ”asos-yatsiya”* qoliplari asosida qurgan va o‘zbek tiling yasovchi affikslari yordamida o‘z qatlam dehqonchilik terminlari hisoblanadi. Ular *”o‘zlashma asos + o‘zbekcha yasovchi affiks”* derivatsiya qolipi asosida vujudga kelgan. Kuzatishlaririmiz

⁶⁹ “ Ўзбек тилининг этимологик луғати” III – жилд 12 - б

natijasida shu ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilining dehqonchilik sohasi bilan bog'liq terminlar tizmining asosiy qismini o'z qatlamdan iboratdir.⁷⁰

Etnografizmlarning adabiy til meyorlariga munosabatini o'rganish e'tiborli masalalardan. Chunki adabiy til me'yori etnografizmlarning nutqda vazifalashuvini tartibga soladi, ularning qo'llanishi davr, sharoit, muhit va matn bilan muvofiqlashtiriladi. O'zbek tilida boshqa (arab, fors) tillardan o'zlashgan etnografizmlar ham mavjud. Shuni hisobga olgan holda o'zbek etnografik leksikasi umumturkiy, arabiy va fors-tojik qatlamlarga ajratiladi.

O'zbek tili dehqonchilik terminlari tizimidagi turkiy tilga xos birliklarni belgilash va aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiluvchi "Devonu lug'otit turk" asarida suv va suvchilik tushunchalari bilan bog'liq 1200 dan ortiq so'z va termin mavjudligi aniqlangan. *Suvlamoq, aqindi suv, suzundi suv, suzuk suv, suvlag', suvsamoq, suvg'armoq, oqmoq* kabi umumturkiy qatlamga mansub atamalarni misol sifatida keltirish mumkin.⁷¹

"O'zbek tilining dehqonchilik leksikasi" asarida suv atamasi qadimgi turkiy tilda 30 ga yaqin, hozirgi o'zbek tilida 700 dan ortiq leksik birliklarning yasalishiga asos bo'lganligi haqida ma'lumot berilib, quyidagilar suv tushunchasi bilan bevosita bog'liq sodda va qo'shma tuzilishli dehqonchilik terminlari sifatida qayd qilinadi: "*ko'chat suv, lotok suvi, suvkanal, suvto'g'on, suv ombor, birinchi suv, suvxona, shirin suv, ko'lmaq suv, turg'un suv, suvchi, suvdon, sariq suv, suv yig'moq, qoqsuv, suvlanmoq, suvsinmoq, suv quymoq, suv solmoq, suv bermoq, suv suzmoq ...*"⁷²

Umumturkiy so'zlar, ayniqsa, marosimlar va bolalar o'yinlari, shuningdek, dehqonchilik chorvachilik va qurilish kabi mehnat turlari leksikasida kengroq namoyon bo'ladi. Bunga sabab marosim, o'yin va mehnat turlari har bir xalqning tarixiy ijtimoiy hayotdagi qiyofasi va mavqeyini

⁷⁰ З.Аллаёрова. Ўзбек тилидаги ўз қатлам агротерминларининг лисоний-структур хусусиятлари ва ўзбек тилини бойиш манбалари. ЎзМУ, 2022

⁷¹ Айтбаев Д.П. М.Кошғарийнинг "Девону луғот-ит турк" асаридаги сув илми атамалари ва гидрографик маълумотлар ҳақида // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 1999. 20-жилд. 178-181 б.

⁷² Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. (Тузувчи: Жабборов Х.) – Қарши: Насаф, 2016. 296 б.

ko'rsatuvchi an'anaviy etnografik hodisalar sifatida uzoq vaqtlar saqlanib qoladi. O'zbek xalqi turkiy xalqlarning biri va asosiy etakchi bo'g'ini. Bunga bir kichik dalil sifatida professor Hamidulla Dadaboyev tomonidan bajarilgan tahlilni keltirib o'tsak. Olim turkiy leksik terminlarning umumiyliigi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun ijtimoiy-siyosiy va sotsial terminlardan 503 tasini ajratib, ularni ba'zi qardosh turkiy tillarning muvofiq leksik birliklari bilan qiyoslash natijasida XI-XIV asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 ta termindan 348 tasi uyg'ur tilida, 230 tasi qozoq tilida, 244 tasi qirg'iz tilida, 370 tasi turk tilida, 390 tasi o'zbek tilida qo'llanganligini ta'kidlaydi.⁷³

2. Arabchadan o'zlashgan dehqonchilik terminlari: Bunday so'zlarning o'zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX—X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o'ynagan: Arab istilosi davri, islom dinining keng tarqalishi, arab tilining o'qitilishi va bilingvizm (ikki tillilik) asarlarning arab tilida yozilishi. Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarning ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir.

Ziroat (arabcha, "ziraot" – un) - ko'p ma'noli **zara'at** > **ziräat (ziroat)**; (II.148) asli ko'p ma'noli **zara'at** fe'lining "**ekdi**" ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, "**ekin**", "**dehqonchilik**" degan ma'nolarni bildiradi. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida ayol kishiga nisbatan atoqli ot ma'nosida ham ishlatiladi.

Kovatok (II.201) - bu so'z asli arabcha **kabob** va tojikcha **tok** (uzum o'simligi) so'zlari bilan tuzilgan **kabobi toki** izofali birikma bo'lib, o'zbek tilida jiddiy tovush o'zgarishiga uchragan.1) birikma oxiridagi **-i** sifat yasovchi olib tashlangan: **kabobi tok**

2) **-bi** tovushi ham talaffuz qilinmay qo'yilgan va ikki so'z birlashgan: **kabobi tok>kabotok**;

3) **b** undoshi **v** undoshiga, **a** undoshi **o** unlisiga almashgan: **kabotok** > **kovatok**.

⁷³ Dadaboyev. H . O 'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 136 b.

Patir - asli arabcha bo‘lib **fatir(un)** shakliga ega(II.348). Bu so‘z asli “**nonushta qildi**” ma’nosini anglatuvchi “**fatara**” fe‘lidan yasalgan asliy sifat bo‘lib, “**oshirilmagan xamirdan tayyorlangan non**” ma’nosini anglatadi.

G‘alla - arabcha g‘allat shakliga ega (II.548), o‘zbek tilida oxirgi **-t** harfi tushirilib qabul qilingan: **g‘allat > g‘alla**; asli ko‘p ma’noli g‘alla fe‘lining “**hosil berdi**” ma’nosi bilan hosil qilingan, arabchada “**hosil, don-dun**” ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tiliga “**don-dun**” ma’nosi bilan o‘zlashgan.

G‘allakor-bu so‘z (II.548), arabcha g‘alla so‘zidan tojik tilida **-kor** qo‘shimchasi bilan yasalgan sifat bo‘lib “**don etishtiruvchi**” ma’nosini anglatadi.

Hosil – bu so‘z arabcha **häs’il** shakliga ega (II.593), o‘zbek tiliga tovush almashinuvi orqali almashtirilib qabul qilingan; **häs’il > ha’sil (hosil)**; bu so‘z ko‘p ma’noli **has’ala** fe‘lining “**yetishdi**”, “**erishdi**” ma’nosida, o‘zbek tilida “**ekin va daraxtdan olinadigan mahsulot**” ma’nosini anglatadi.

3. **Forschadan o‘zlashgan dehqonchilik terminlari**: Hozirgi o‘zbek tilida fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida otlar, sifatlar, ravishlar: *dehqon, karta, mirob, paykal, zaxkash, jo‘ya, shox, sho‘r, bahori, gul, yagana, nihol, marza, maydon, girdob kabi so‘zlar uchraydi.*

Bargak - “*yaproq*” ma’nosini anglatadigan tojikcha barg otiga, kichraytirish-erkalash ma’nosini ifodalaydigan – **ak** qo‘shimchasi qo‘shish orqali hosil qilinib, “*danaksiz quritilgan o‘rik*” ma’nosini bildiradi. (III.22)

Govron - bu ot “**qora mol**” ma’nosini anglatadigan gov otiga, “**hayda**” ma’nosini anglatadigan “**rondan**” fe‘lining **ron** hozirgi zamon asos shaklini qo‘shib hosil qilinga bo‘lib, “**podachining yo‘g‘on novdadan qilingan tayog‘i**” ma’nosini anglatadi.

Dahana - bu ot tojikcha **dahan** otiga **-a** qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lib, “**ekinga katta ariqdan suv oladigan joy**” ma’nosini anglatadi. (III.84)

Jo'yak – bu ot “ariq” ma'nosini anglatgan tojikcha “**cho'y**” otiga **-ak** qo'shimchasini qo'shib hosil qilinib, “**ekinni sug'orish uchun pushta olib ochiladigan ariq**” ma'nosini anglatadi. (III.100)

Yagana – bu ot o'zbek tiliga tojikcha “**yagona**” sifatining, ikkinchi bo'g'inidagi **o** tovushi **a** tovushiga almashib, “**o'sib chiqqan ekin nihollarining ortiqchasini yulib tashlab, tekislash**” ma'nolari bilan o'zlashgan hisoblanadi. (III.109)

Ko'rak – bu ot “**ko'rmaydigan**” ma'nosini anglatadigan “**ko'r**” sifatiga **-ak** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, “**sovuq urib ochilmay qolgan ko'sak, g'oz**” ma'nosida qo'llanadi.

Piyova – bu ot asli “*piyozoba*” shakliga ega bo'lib, tojikcha piyoz oti bilan “suv” ma'nosini anglatadigan **ob** otidan hosil qilingan bo'lib, *piyozob* birligiga –a qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan bo'lib, **-oz** tovushi tushirilib, piyoba shaklida o'zbek tiliga **b** undoshi **v** tovushiga almashtirilib “*piyova*” tarzida olingan. “*piyoz va suv bilan yoki piyozdog'i va suv bilan tayyorlanadigan taom*”. “*yovg'on sho'rva*” kabi ma'nolarni ifodalaydi.

4. Ruscha va boshqa tillar dehqonchilik terminlari: *fermer, plug, irrigatsiya, agronom*

Umuman olganda, o'zbek tilining terminologik tizimidan ko'plab dehqonchilik leksikasi o'rin egallab, sohaviy qo'llanishda faol hisoblanib kelinmoqda. Ular genetik jihatdan, avvalo, o'z qatlamiga oid leksemalardir. Shuningdek, dehqonchilik leksemalar tizimida o'zlashma asosli terminlar ham o'zining alohida o'rniga ega.

Bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tili etnoleksikasining o'rganilish tarixi bu sohada jiddiy tadqiqotlar olib borish zarurati mavjudligini ko'rsatdi. O'zbek tili etnografizmlarini leksik-semantik, funksional, sistem-struktur, tematik planda zamonaviy dunyo tilshunosligi tajribalariga asoslangan holda izohlash tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

2. O‘zbek tilshunosligi tarixi leksikografiyaning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Til rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, badiiy so‘z san‘atiga e‘tibor va ma‘naviy aloqalarning kuchayishi ko‘plab lug‘atlarning yaratilishiga asos bo‘ldi. Biroq M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan boshqa lug‘atlarda turkiy xalqlarning milliy madaniy urf-odatlarini leksikasi keng o‘rin olmadi. Tuzilgan lug‘atlarning aksariyati ma‘lum bir ijodkor asari leksikasini yoritib berishga qaratilgan edi.

3. O‘zbek tili etnografik leksikasini Surxondaryo aholisi nutqi misolida leksikografik jihatdan nazariy va amaliy o‘rganish tilimizda hali juda ko‘p leksemalar lug‘atlashtirilmaganini, etnosning jonli muloqot nutqi esa to‘liq o‘rganilmagan leksik makon ekanini ko‘rsatdi. O‘zbek tilining umumiy etnografik va dialektal lug‘atlari tuzilmagani – buning yorqin dalili. Shuningdek, xalq nutqida to‘laqonli leksema shakliga kirmagan, sintaktik qolip (so‘z birikmasi, gap) ko‘rinishidagi etnografik oraliq nomlar ham mavjud, ularni o‘rganish tilimizning leksik sistemasi va grammatik qonun-qoidalarini chuqurroq ochish uchun juda zarur.

III BOB. SURXONDARYO VOHASIDA DEHQONCHILIK VA ChORVACHILIKKA OID PARAMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

3.1. Dehqonchilik va chorvachilikka oid frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari

Tilda ham shakl va ma'no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi – tovush- ko'zda tutiladi. Bu tilning ifoda plani deb ataladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farq qilinadi, bulardan tom ma'nodagi shakl - birinchisi.

Yolg'iz shaklning o'zi hali til birligi emas. Til birligi bo'lishi uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no biriktirilgan bo'lishi kerak. Bunday ma'no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqining o'zida kashf etmaydi, balki biror shaklga bunday ma'no tilda biriktirilgan bo'ladi, nutq shuni qalqitib beradi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb deb tovush tuzumi ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemaga uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi.

Frazeologik birliklarda ma'lum bir xalqning o'ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so'zi bilan yoxud anglatayotgan ma'nosi bilan o'zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milliy-madaniy axborot beradi. Demak, har bir tilning frazemalari o'sha til egalarining asrlar mobaynida yaratgan madaniyati, ma'naviyati, tarixi, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qariyb uch ming dan ortiq xalq ro'yxatga olingan va ular turli qit'alarda istiqomat qiladi. Bularning barchasini an'analari, urf-odatlar, dunyo qarashlari, madaniyati, shu xalqning, millatning tilida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har bir millat vakili milliyligini tilida, madaniyatida aks ettiradi.

Ibora yirik til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil so‘zdan (leksemadan) tarkib topadi. Shunga ko‘ra, iboraning ifoda plani deb leksemalar, shular tarkibidagi til birliklari ko‘zda tutiladi.

Tarkibli morfemaning, leksemaning ma‘nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma‘nolarning yig‘indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma‘nosi asosida butunning ma‘nosi tushuniladi.

Ibora ham ko‘p tarkibli til birligi, lekin uning ma‘nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Demak, frazeologik birliklar ifoda plani bilan mazmun planining o‘ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko‘ra frazeologik birliklar alohida yondoshishni, o‘rganishni talab qiladi. Xususan, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq frazeologik birliklarni tadqiq etdik.

Arpa(si)ni xom o‘rmoq [...o‘rdi (m) mi?!] (27) - nima yomonlik qildi? - ma‘nosida qo‘llanadi *Arpangni xom o‘rdimmi, jiyan? Sharof Rashidov, Bo‘rondan kuchli.*

O‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olmoq - duch kelgan kishiga ozorbermoq, bezorilik qilmoq; - *O‘sha kezlarda Burgut bosar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, o‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olib yurdi, - dedi chol .S.Ahmad, Cho‘l burguti.*

Otday - sog‘lom, baquvvat odam.

Egarlangan otday. Ko‘chimi: topshiriq, ish-harakat ijrosiga tayyor shaxs.

Xamir uchidan patir - Katta, ko‘p narsadan bir qismi uchun, bu boshlanishi davomi bor degan ma‘noda ishlatiladigan ibora hisoblanadi. “*Xamir uchidan patir*”, - deb, hokim ziyofatidan oldin bir tovoqqina “*alovxonto‘ra*” qildirgan bo‘lsalar, *M.Ismoiliy Farg‘ona tong otguncha.*

Chorvachilik etnografizmi chorvaning yashash tarzi, tug‘ilishi, ovqatlanishi, urchishi, ko‘payishi, son-sanog‘i (miqdori), mahsuloti, kasallanishi, o‘limi, fe‘l-atvori, inson hayotida tutgan o‘rni kabilar bilan bog‘liq paydo bo‘ladi, shakllanadi.

- *Hayvon nomi va xususiyatlari bilan bog'liq frazeologik birliklar.*

Bo'ri. Bo'ri turli joylarda turlicha: oqquloq, ko'ktaka, jondor, qabishqir (jag'i qapishsin ma'nosida), qarishqul, itqush, qora, «egasi» (kesatiq) kabi etnoleksik nomlar bilan ataladi.

Yaylovda, xususan, kechasi bo'ri qo'ton yoki qo'raga keladi. Mana shu vaziyat, ya'ni qo'yga bo'ri kelibdi, shu atrofda bo'ri bor gaplari itlar chapalanayapti, qattiq-qattiq hurishayapti, itlar qora ko'rganday, qora aylanayapti, jondor aylanayapti, qo'ylar hurkiyapti, bezovta bo'layapti, pirqillashayapti; suruvga bo'ri kelibdi, oralayapti gapi suruvga jondor boribdi, jondor chopibdi, jondor oralabdi; bo'ri qo'yni ebdi, bo'ri olibdi tushunchasi g'ajir aylanayapti, g'ajir tashlanayapti, yoki emtigi (emtik molning bo'ri egandan keyin qolgani – qoldiq) topilibdi kabi birliklar orqali anglashiladi. Qidirgan qo'yimiz “egasi” ning qo'lga tushibdi (“Boysun tongi”dan) etnoleksik birligi: a) bo'ri ebdi; b) o'g'ri olibdi ma'nolarida qo'llaniladi. *Bu yil Bobotog'da ko'k taka ko'paygan, bir kechada beshta molni olibdi (cho'pon og'zidan).*

Bo'ri kelishi mumkin bo'lgan qulay – pastqam joy **chobit** (chopmoqdan) deyiladi. *Chobitini oling, chobitiga ehtiyot bo'ling* gaplari bo'ri kelishiga yo'l qo'ymang, bo'ri keladigan yo'lni to'sing kabi etnoleksik birliklardan iborat ma'nolardir.

- *Chorvaning urchishi bilan bog'liq frazeologik birliklar.* Hayvonning juftlashishga tayyorgarligi va unga bo'lgan maylini anglatishga uyg'onibdi, kuyikibdi (umumiy tushuncha), ayg'irtalab (biya, baytal), buqatalab (sigir), hangitalab (mocha), takatalab (echki), qo'chqortalab (sovliq) bo'libdi; iliqibdi (it), mov bo'libdi (mushuk) – (konkret tushuncha); juftlashganlik, aloqa qilganlik tushunchasiga nisbatan ayg'irga ketgan, buqaga ketgan, qo'chqorga ketgan, takaga ketgan; juftlashish natijasi bilan bog'liq tushuncha (bo'g'oz)ga nisbatan to'xtagan-to'xtamagan, qochgan-qochmagan etnografik birliklari qo'llaniladi. Qo'yqochirish (qo'ylarni sun'iy urug'lantirish uchun maxsus joy) atamasi ham shu tushuncha bilan bog'liq.

Tug'moq so'zi o'rnida turkiy xalqlar chorvadorlari nutqida to'l tushmoq (to'l – to'lmoq, ko'paymoq ma'nosida) etnoleksik birliklari qo'llanilgan: to'l kechikdi, to'l tushdi, to'l boshlandi, to'l davom etmoqda, to'l vaqti, to'l tushib bo'ldi, to'l tomom bo'ldi kabi: *Bu yilgi to'l tomom bo'ldi. Ishqilib egamning o'zi kam qilmasin. Qo'y-echkilarning to'li avjida, egizaklar ham ko'p, hatto uchamlar ham bor (uch qo'zi yoki uloq tug'ilsa – ucham deyiladi)* (X.Xolmo'minov, «Ko'klamning bir kuni», 4-b.).

- *Chorva mahsuloti bilan bog'liq frazeologik birliklar.* Qadimdan chorva va uning mahsulotlari inson hayotining asosi bo'lganligi uchun muqaddaslashtirilgan. Masalan, *sut, qatiq, qaymoq, uvuz (og'uz), kelagay atamalari oq, oqlik, og'arsin* (oqarsin) etnografizmlari mavjud bo'lgan. Hozir ham shunday: shukur, oqqa etdik; og'zimiz oqqa etdi, og'zimiz oqqa tegdi evfemik iboralari chorvadorning eng sevimli va e'zozli gaplaridir. Misollar: *Og'zimiz oqqa tekkanda, sigirimizning buzog'i o'lib qolsa bo'ladimi* («Mushtum», 1999, №6, 17-b.). *Agar bo'lsa oqliging, bilinmaydi yo'qliging (maqol).*

Sut, qatiq ma'nosidagi oq leksemasi idish bilan metonimik bog'lanib, boy bo'ldi (kosasi oqardi), kambag'al bo'ldi (kosasi oqarmadi) tushunchalarining etnoleksikasi bo'lib xizmat qiladi: *Uzoq yillar o'zi azob berib, kosasini oqartirmagan* (T.M., «Oydinda yurgan odamlar», 193-b.).

- *Chorva miqdori bilan bog'liq frazeologik birliklar.* Odatda chorva egasi yoki cho'pon molning bor yo'qligini, yo'qolgan yo'qolmaganligini bilish, hisobga olish maqsadida ma'lum bir vaqtda (ko'pincha bir sutkada bir marta) sanaydi. Bu chorvador nutqida «*mol tugallash*» deyiladi. Mol miqdorini – sonini ochiq aytish, hatto sanash xufiya (ichda) ijro etiladi; zaruriyat tug'ilmasa natija aytilmaydi: hammasi bor o'rnida – tugal; bir nechasi yo'q o'rnida tugal emas so'zlari qo'llaniladi.

Sog'uvchining molning hammasi sog'ildimi? Sog'ilmagan mol qoldimi? so'roqlariga sog'diruvchidan *ha, yo'q* yoki *qolmadi* so'zlari bilan emas, *boyidi* (*boyimoq, boy bo'lmoq* fe'lidan); *Molingiz qancha? yoki nechata?* deb aniq

so'ralganda: jamlovchi, mavhum son bilan Ha, xudoga shukr, bor *bir to'rt-beshta* yoki *bor bir o'n besh-yigirmatacha* deb qo'ya qoladi. Hatto ko'p hollarda chorva turlarning nomlari tilga olinavermaydi: *xo'kiz, sigir, tana, buzoq kabilar – mol, qora, katta, yirik shoxli; qo'y, qo'zi, echki, uloq, sarka, taka* kabilar – *kichik, mayda, ushoq* kabi atamalar bilan o'xshatilib aytiladi.

- *Mol suyaklari va ularning qismlari bilan bog'liq frazeologik birliklar*. Bunda ko'proq *oshiq, qovurg'a, shax suyak, ilik, to'piq* kabi so'zlar real ma'nolaridan tashqari, ko'chma ma'nolarida kelib, inson harakatiga, faoliyatiga nisbat berilgan va evfemik ma'no kasb etgan. Masalan, «falonchi»ning omadi keldi, omad kulib boqdi, baxti ochildi, ishi yurishib ketdi deyish o'rnida yomon ko'zdan, nazardan, dushmanlardan saqlanish kerakligi nazarda tutilib *oshig'i olchi* etnoleksik birikmasi qo'llaniladi: ***Qodirovning oshig'i olchi do'ppisi yarimta.***

Qovurg'asi ko'rinib qolibdi, qovurg'asini sanasa bo'ladi gaplari ham oriq, so'yib bo'lmaydi, go'shtini eb bo'lmaydi tushunchasining evfemik ifodasidir. *Qovurg'amga kelmayati, qovurg'asi qovurg'amga to'g'ri kelmayapti* iboralari yoqmaslik, biror masalada, chunonchi, savdoda kelisholmaslik tushunchalarining evfemik ifodasidir: *Otingizni yomon demayman, olmoqchiman, biroq qovurg'amiz qovurg'amizga to'g'ri kelmayapti* («Chag'oniyon», 2000, 3 may).

Shoxi (-ng, -im) chiqdimi? ritorik so'roq gapi soxta, zo'rma-zo'raki, noqonuniy harakat orqali yuzaga kelgan «maqsad», noxush voqelikning ifodasidir: Asqar bobo qo'shni yigitga (oilasini tashlab, boshqa ayolga uylanib pushaymon eyayotganligiga pisanda qilib): *Shoxing chiqdimi, – dedi (M. Safarov).*

Shuningdek, ishda *pichoq suyakka etdi* gapi *jondan to'ymoq, sabr kosasi to'lmoq, hujumga o'tlanmoq, biror fojeaviy voqelikka tayyor bo'lmoq*; Otalilar to'ydan ilik oladi, otasizlar qarab-qarab qoladi (chorvador nutqidan) gapi og'aynidor, orqasi (suyanchig'i) borlar, mansabdorlar hamisha ardoqda, hurmatda; g'ariblar g'urbatda, xo'rlikda yashaydilar; Iligi to'la, iligi baquvvat –

kuchli, boy, boyvacha; iligi qurigan, iligi puch – kamquvvat, kamdarmon, kambag'al kishi tushunchalarining etnografizmlar haqida fikr yuritilgan.

Badiiy salohiyati g'oyat yuksakligi tufayli, juda qadim zamonlardanoq xalq og'zaki badiiy ijodiyotining bebaho namunalarini yaratgan xalqimiz nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq xalqlari madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan folklor an'analari hamda marosimiy qadriyatlarning ham ijodkori hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan bebaho milliy folklor an'alarini o'z badiiy tafakkuri mahsuli bilan boyitib, yanada rivojantirganligi uchun ham o'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelmoqda. Zero, ajdodlarimiz badiiy tafakkurining sarchashmaga monand qadim ildizlari shu qadar olis zamonlarga borib taqaladiki, ming yillar mobaynida xalq diliga jo bo'lib, so'zga chechan ijrochilar tilidan tushmay, boyib, to'lishib kelgan folklor asarlari milliy qadriyatlarimiz sarchashmasi sanaladi.

3.2. Dehqonchilik va chorvachilikka oid maqollarning semantik tahlili

Maqol, matal va aforizm kabi hikmatli iboralar tizimi jahon tilshunosligida paremiologik birliklar sifatida qaraladi, ular inson tafakkurining eng sara durdonalari sanaladi. Eng so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda frazeologik va paremiologik birliklarning xilma-xil aspektlari, strukturaviy jihatlari, lingvokulturologik xususiyatlari o'rganilganligidan soha olimlari xabardor. Eng muhimi, maqollarning yondosh hodisalarga munosabati va lisoniy mavqei masalalari bilan bog'liq mazkur olimaning ilmiy-nazariy mulohazalari, xususan, maqolning idiomaga munosabati, maqol va ibora, maqol va matal orasidagi munosabatlar, maqol-matal tipidagi premalar tahlillari bizning tadqiqotimizdagi ushbu fasl uchun nazariy asos bo'ladi, deb hisobladik. Folklor matnlarida bunday til birliklarining juda ko'plab namunalari uchraydi, tadqiqotchilar tomonidan ular muayyan tarzda maqol-matal-aforizmlar tizimida o'rganildi. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" da maqol-matal tipidagi

paremalar tuzilishiga va semantik xususiyatiga ko'ra tasnif etilgan va "Paremalar badiiy tasvirlash vositalariga ham klassifikatsiya qilinsa ham bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, evfonik vositalariga ko'ra, o'xshatishni(metafora), taqqoslashni(antiteza), paralelizm, anafora, piching, kesatiqni ifodalashiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin",⁷⁴ -degan mulohaza ham berilgan.

Arpa pishar, ishingiz tushar.- Tirikchilikda biron narsa etishmay qolganda majbur bo'lib birovdan so'rab qolsayu, u bermasa, qizg'ansa shu maqolni ko'chma ma'noda: Bizning ham qo'limizga mablag' kelib qolar, bir-kunmas - bir kun bizga ham ishingiz tushsa hijolat bo'kib qolasiz degan niyatda ishlatiladigan maqol hisoblanadi.

Arpa ekkan arpa olar, bug'doy ekkan bug'doy olar – mu maqolni kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan hikoyani XIII asrda Nosiriddin Rabg'uziy o'zining "Qissasi Rabg'uziy" asarida, "Xo'ja o'zining "Miftoh ul-adl" asarida keltirgan. "Luqmoni hakim bir qul erdi. Xojasi bir kun aytdi: yo Luqmon, falon yerga borib, arpa ekkil, falon yerga borib, bug'doy ekkil, dedi, ersa Luqmon borib arpa ekkil degan yerga arpa ekti, bug'doy ekkil degan yerga arpa ekti. Qachonkim ekin tamom bo'ldi ersa, Luqmonning xojasi keldi, ko'rdikim, arpa yerida bug'doy ekilmish, bug'doy yerida arpa ekilmish, Xojasi aytdi: nechuk mundoq qilding? Luqmon aytdi: men gumon qildimkim, arpa yerinda bug'doy bitar, bug'doy yerinda arpa bitar, deb andoq qilib erdim. Taqi Luqmon aytdi: ey xoja, nechukkim yozuq o'rnida savob bitar, savob o'rnida yozuq nitar?! Tunu kun zulm qilursan, taqi qiyomatda savob umid etarsan. Xojasi buni eshitib ox urdi, tovba qilib, Luqmonni ozod etdi "Bu maqolni bir necha sinonimlari bo'lib o'zaro, ijobiy, salbiy bo'yoqdorligi bilan bir-biridan farq qiladi.

"Arpa ekib bug'doy kutma", "Nimani eksak, shuni o'rasan", "Qovun ekkan ,qovoq olmas", "Tikandan tariq unmas" kabi dehqonchilik maqollari bir-biri bilan o'zaro ma'nodosh hisoblanadi.

⁷⁴ "Ўзбек тилининг паремнологик луғати" III-жилд 12-бет

Belni peshlagan bilar, yerni ishlagan bilar – mazkur maqolda mehnat va mehnatning orqasidab keladigan ne'matlarning qadrini mehnat zahmatni chekkanlargina yaxshi biladilar. O'zlari mehnat qilmagan, o'zgalar mehnati hisobiga yashaydigan odamlar, buning qadrini qaydan biladi degan ma'noda qo'llangan. Shuningdaek, sinonim sifatida El qadrini bilmaydi, el ichida yomonlar, Yer qadrini bilmaydi, yer ekmagan odamlar" maqolini qo'llashimiz mumkin.

Arpa og'sa kandugingni tuzat, bug'doy og'sa - somon xonangni – dehqonlarning aytishicha , agar arpa boshog'ini ko'tarolmay, bir tarafga og'sa, soyada doni to'lishib hosildor bo'ladi. Shuning uchun "g'alla soladigan kandugingni tuzat, o'rim-yig'imga taraddudingni ko'raver deganlar". Agar bug'doy og'sa, buning aksincha, boshoglari bir-birining ustiga yotib, qizib, dimiqib, doni kuyib, puchqoq bo'lib, hammasi sonxonaga chiqib ketadi degan ma'noda qo'llaniladi. Bu maqolga sinonim sifatida ***"Bug'doy boshog'i tursa, omboring tuzat, Bug'doy boshog'i yotsa molxonang tuzat", "Donning bo'lig'i-omborning bo'lig'i"*** kabi maqollarni keltirish mumkin. Arpa etnoleksemasi haqida iboralar ham borki, xalq nutqida faol qo'llaniladi

"Arpangni xom o'rdimi?", nima yomonlik ko'rding (yomonlik qilmaganlikni qayd etuvchi ibora) ma'nosida. *Alisher Navoiyga qarshi tillaringni muncha qayray berdilaring! U janob senlarning arpalarini xom o'rdimi?* Oybek (Navoiy)

Barimtadan qo'rqan mol yig'mas, chigirtkadan qo'rqan ekin ekmas – bunda "barimta" ko'chmanchi chorvadorlik odatlaridan biri, bosqinchi, mol o'g'irlovchilarga nisbatan ishlatiladigan so'z. Maqolda hali yopirilib kelmagan chigirtkadan qo'rqib ekin ekmay, hali bostirib kelmagan barimtachilardan qo'rqib chorva ko'paytirmay o'tirma, ekiningni ekaver, molingni ko'paytiraver" - degan ma'noda, ya'ni ikkilanib o'tirmay, dadil harakat qilish lozimligi ma'nosida qo'llangan maqol hisoblanadi.

Bedov ot yo'lda surinar – “Bedov” - kuchli, chopib charchamaydigan, eng yaxshi ot hisoblanadi. Ya'ni ko'chma ma'noda eng yaxshi insonlarni ham birxatosi, nuqsoni bo'ladi, hamma ham adashadi - degan ma'no kelib chiqadi.

Bir anor ming bemorga da'vo – “nordon anor va uning sharbati barcha dardlarda da'vo sifatida, xususlan, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” da safroni bosuvchi, ichki organlarni tozalovchi sifatida tilga olinadi, po'stlog'i esa har xil jarohatlarga da'vo”, - degan ma'nolarda ushbu maqol xalq nutqida keng tarqalgan.

Bir odam omoch bilan, ettovlon cho'mich bilan – “***O'roqda yo'q mashoqda yo'q xirmonda hozir***”. Bu yerda “mashoq” leksikasi bug'doy o'rib-yig'ib olingandan keyin yerga to'kilib qolgan boshloqlarni terib olish jarayoniga nisbatan ishlatiladigan so'z hisoblanadi. ***Arzimaydi g'allasi - kuydiradi shogirdonasi***. Bu yerda “shogirdona” - ya'ni eng quyi darajadagi soliq yig'uvchiga mahsulot bilan to'lanadigan haqdir. Bu kabi maqollar o'tmishda tengsizlik, haq-huquqsizlik sifatida ishlatilgan, hozirda esa o'tmish ma'nosi bilan teng qatorda, oz mehnat qilib ko'p narsa talab qiladiganlarga nisbatan ishlatiladi.

Bir qo'llab sochasan, ikki qo'llab o'rasan – dehqonlar yaqin o'tmishgacha g'alla ekkanda urug'lik donini etakka yoki to'rvaga solib olib, bir qo'llari bilan sochib ketaverishgan. G'alla o'rimida esa ikki qo'llari ham ishlar-bir qo'llari boshloqni, bir qo'llari o'roqni ushlab o'rardilar. Maqolda ana shu ikki holatni tasvirlash orqali: G'alla eksang, demakki barakali xirmon olasan, bir qo'llab qilgan mehnatingning samarasini ikki qo'llab olasan” demoqchi bo'lingan va mehnatsevarlik targ'ib qilingan. Maqolni sinonimlari sifatida ***“Donalab sochsang, qoplab olasan”***, ***“Misqollab sepgan - botmonlab olar,*** ***“Bir kun beda sochsang, bir hafta beda o'rasan”*** kabi maqollarni keltirishimiz mumkin.

Bug'doy eksang kuzda ek, yaxshi haydab, bo'zda ek – bu bilan “Kuzda bo'z yerga ekilgan bug'doydan barakali xirmon ko'tarish mumkin”, degan ma'noda xalq bu maqolni nutqida ko'p ishlatishgan. ***“Bo'lsa - obi, bo'lmasa***

lalmi ” degan maqol ham dehqonchilikka bevosita taalluqli bo‘lib, dehqonlar nutqida ko‘p ishlatilgan. Bu yerda “*obi* - sug‘oriladigan, *lalmi* - sug‘orilmaydigan, faqat yomg‘ir suvi bilangina ekin bitadigan bahorikor yerga nisbatan ishlatiladigan etnoleksika hisoblanadi”. Maqolda “sug‘oriladigan obi yering bo‘lsa yaxshi, agar bo‘lmasa, lalmikor yerga ham eksang ma‘qul” degan ma‘noda, barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak degan sema kelib chiqadi.

Bug‘doy o‘rilgach, o‘roqni zang bosadi – bu maqolni o‘z ma‘nosida ba‘zi dehqonlar bug‘doy o‘rilgach o‘roqni bir chekkaga olib qo‘ymaydida, ishga yaroqsiz qilib qo‘yadi. Majoziy, ko‘chma ma‘noda esa insonga nisbatan, ya‘ni ba‘zi odamlar ishi bitguncha odamning atrofida girdikapalak bo‘ladi, ishi bitgandan keyin, u odamga qayrilib ham qaramaydi, salomini ham qizg‘onib qoladi. Maqol ana shunday insonlarga nisbatan ishlatilgan.

Bug‘doy hosili boshida, sabzi hosili tagida – bu maqolning kelib chiqishi masalga borib taqaladi. Dehqonlar bu maqolni ishlatayotganda, o‘ta soda, ishning ko‘zini bilmaydigan hammadan aldanib yuradiganlarga nisbatan ishlatishadi.

Dehqon yog‘sa tinar, cho‘pon o‘lsa tinar - “Dehqon qorda tinar, Cho‘pon - go‘rda”, “Qo‘shchi yomg‘irda tinar, baliqchi - dovulda”. Mazkur maqollarda cho‘ponning mehnati tinimsiz ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Dehqon bahorda ekkan - tiqqanini kuzda yig‘ib olib tinadi, yanagi bahorgacha nafas rostlab oladi. Ammo, cho‘ponning ishi bunday emas. U yil bo‘yi qo‘zi - ulog‘ini avaylab boqadi.

Dehqonning uyi kuysa - kuysin, ho‘kisi o‘lmasin - “Dehqonning o‘zi kasal bo‘lsa ham, ho‘kizi kasal bo‘lmasin”, O‘tmishda dehqonning butun tirikchiligi uning omochini tortib, yerini haydab beradigan ho‘kizni benihoya qadrlagan. “*Dehqon ketmonini sotmaydi*”, - degan maqol ham bor.

Dehqonchilik bo‘lmasa – quruqchilik - dehqonlar o‘tmishda omadlari kelib, hosilga ega bo‘lib qolsalar - biror tabiiy ofatga duchor bo‘lib, hollari voy bo‘lardi. “*Dehqonning qopi tik turmasa, beli bukiladi*”.

Donga donga ajralar, somon – somonga – bug‘doy, arpa va boshqa donli ekinlar o‘rib-yig‘ilgach, doni-donga, somoni somonga ajraladi. Bu - maqolning to‘g‘ri ma‘nosi. Qarindosh - urug‘lar ichida begona odam do‘st, og‘ayni bo‘lib yursa ham, biror oilaviy janjalni bostirishda, qarindosh urug‘larning fikri bir joydan chiqadi, ularning gapi –gap bo‘ladi, begona esa bir chekkaga chiqib qolaveradi. Majoziy, ko‘chma ma‘noda ana shunday holatlarga nisbatan ishlatiladigan paremiologik birlik hisoblanadi.

Doniga chidagan tovuq boqar, yemiga chidagan – sigir – ya‘ni kiringa qarab chiqim qilish kerak. Buning aksicha ham kiringa erishmoq uchun ham chiqim qilish kerak. Ana shu chiqimga chidagan odamgina kiringa ega bo‘ladi degan ma‘noda qo‘llaniladigan maqol hisoblanadi.

Yeyishing-kepak, kiyishing – ipak – bu maqol yeyish - ichishini cheklab bo‘lsa ham bor pulini kiyim-kechak, zeb-ziynatga sarflaydigan, ko‘chada o‘zini ko‘z-ko‘z qilib yuradigan insonlarga nisbatan ishlatilgan qadimiy maqollarimizdan biridir.

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda – bu maqol qadimdan xalqimizdan nutqidan saqlanib, hozirda ham qo‘llaniladigan maqollardan hisoblanadi. Bunda dehqonlar ko‘p yillik tajribali natijasida erni kuzda haydash, bahorda haydashdan ko‘ra ancha afzalligini eslatadi. Shuning uchun ham maqolda ***“yer haydasang kuz hayda, bahorda yuz marta haydasang ham kuzda haydagandek natija bermaydi”***, - degan ma‘noda qo‘llanilgan birikma hisoblanadi. Sinonimi sifatida ***“dehqon bo‘lsang shudgor qil, mulla bo‘lsang takror qil”*** maqolini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Bir yil tariq eksang, bir yil shudgor qil – dehqonlarda “tariq” juda kuchli don mahsuloti bo‘lib, yerni kuchini oladi degan gap bor. Shuning uchun tariq ekkandan keyin yerga bir yil dam berishgan.

Qo‘li uzun, qo‘lini qayoqqa uzatsa etadi, o‘ziga to‘q, beli baquvvat, “otliq” – boy: Bu ishni kim qilsa-da, qo‘li uzun odam qilibdi, o‘ziga to‘q odam qilibdi (T.M., «Ot kishnagan oqshom», 65-b.). *O‘ziga to‘qlar qo‘y so‘ydi* (T.M., "Otamdan qolgan dalalar", 95-b.).

- “Zo‘r” so‘zi orqali. *Zo‘rniki tegirmon yuritar* (maqol).

- *bozori chaqqon, baxti chopgan, omadi kelgan, oti chopgan, omad kulib boqqan, Xudo bergan* – “boy” tushunchasi

“Kambag‘al”: - *ma‘rashga moli, borarga joyi yo‘q* (maqol), *kambag‘alning qozoni qoraymaydi, qoraysa ham qaynamaydi* (maqol), *qayt deyishga qo‘yi yo‘q, kisht deyishga tovug‘i* (maqol) *qo‘li kalta, qo‘li qisqa, kamquvvat, yo‘q, bechora, qo‘ri-quti yo‘q, yo‘qchilik, indiniga yo‘q, yalong‘och Ahli mo‘minlar qurbonlik qilishdi. Qo‘li kalta mo‘minlar qassobdan go‘sht oldi* (T.M., “*Ot kishnagan oqshom*”, 357-b.). *Borlar ohorli kiyimlar kiydi, yo‘qlar ko‘hna bo‘lsa ham, ozoda kiyim kiydi* (T.M., “*Oydinda yurgan odamlar*”, 237-b.). *O‘n kun bo‘ldi, qozonimiz go‘sht ko‘rmadi* (T.M., “*Otamdan qolgan dalalar*”, 124-b.). *O‘g‘il uylantirdi, qiz chiqardi, buning ustiga o‘lim ko‘rdi – qo‘ri quti ham tamom bo‘ldi* (Sh.X., «*So‘nggi bekat*», 127-b.). *Dehqonlarni sen yalong‘och qilibsani, elning ekinini sen edirib qo‘yibsani* («*Alpomish*», 88-b.).

“Boy va kambag‘al” - qora uy, o‘tov, oq o‘tov, baxmal o‘tov, kappa, chayla, olachuq, chodir

Shu yo‘ldan burilmay to‘g‘ri borasan,

Boysarining baxmal uyini ko‘rasan...

Xabar bordi shunday otlar choptirib,

Namoyishga oq o‘tovlar yoptirib (“Alpomish”dan). Uzoqdan bilinar - bilinmas bir kapa ko‘rindi (N. Ergashev, “O‘zanbiy avlodlari”, 71-b.)

Ot ko‘rmagan mina-mina (chopa – chop) o‘ldirar – ba‘zi insonlarga nisbatan narsa qadriga yetmaslik, farosatsizlik, aqlsizligi oqibatida o‘zining narsalarini befoyda narsalarga ishlatib, yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi.

Otdan yiqilsa yolini, eshakni yiqilsa tuyog‘ini to‘shaydi – shunday insonlar borki, insonning boshiga ish tushsa, fojia yuz berganda, mard himoya qiladi; nomard tashlab ketadi (Otdan yiqilsa paxta, eshakdan yiqilsa taxta varianti ham bor). Shu holatlarga nisbatan ishlatiladigan maqol hisoblanadi.

Oyog'i uzangiga yetmagan, qo'yniga yarim non ketmagan – ba'zi odamlarni shuncha harakat qilsang ham tarbiya qila olmaslik, noshud, nodon, bo'lmas odam.

Yaxshi tulpor tuyog'idan toyrilarmi – o'z maqsadidan chekinmaslik, hayot to'siqlarini yengib o'tadigan, gapidan qaytmaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Otliqning eshakli (yoki piyoda) bilan ne parvoyi bor - Boy yoki mansabdor odam kambag'al, nochorlarga e'tiborsiz bo'lishiga qarata ishlatiladi.

Otlarning tuyog'iga bo'lay na'l,

Dushmanlarning tomog'iga bo'lay ajal – do'stning baxti, dushmanning o'limi uchun tayyor turmoq.

Otga na'l qoqsa, eshak ham oyog'ini ko'taribdi – nomard, past, nodon kishi o'zini men ham mard, buyuk deb tushunishi.

Ot bog'ladim bodomga, kunim qoldi nodonga – mardning nomardga, noshudga muxtojligi – (Ot boyladim archaga (yoki hachchaga), kunim qoldi bachcha (bola)ga varianti ham bor).

Zamonaning ozgani – otdan eshakning o'zgani – aqlli va donolar ustidan aqlsiz va nodonlarning g'olib kelishi.

Yigitga pand berar otning mayibi,

Qoziga pand berar noshud noibi – xiyonatkorlik, nodonlik tufayli yuzaga keladigan kulfatlar.

Alp – onadan, ot – biyadan, lo'k – to'yadan – zoti past onadan yaxshi zurriyot qolmaydi.

Tak-takka turmaydi (tak – otni to'xtatishda qo'llanadigan undov so'z) – muomala-mulozamatga ko'nmaydigan, izzat-ikromni bilmaydigan shaxs.

Ayg'iri qattiq – jilovi qattiq – o'zgalarga bosh egmaydigan, tan bermaydigan, mag'rur, o'jar odam.

Do'non ofati, g'unon ofati bor – maqsadga erishish uchun juda ko'p qiyinchilik va to'siqlarni engmoq, sinovlardan o'tmoq.

Oziqli ot horimas – zahirasiz, moddiy ta'minotsiz hayot ishonchli emas – xavfli.

Baland oxurdan yem yegan – kibru havoli, sobiq rahbar, oddiy xalqni nazar-pisand qilmaydigan odam.

Ot ustida quloq bog'laydi – takabbur, buyruqboz, byurokrat odam.

Yomon yaxshi bo'lmas, eshak baxshi bo'lmas – eshak to'ysa (semirsa), egasini tepadi; Eshak egasini, pishak bekasini tanimas: bu maqollarning ko'chimi: nomard mard bo'la olmaydi, nokasu nojinsdan odam chiqmaydi: Asli qora oqarmas, tubi qing'ir tuzalmas (maqol) tushunchalari mavjud.

Insonga – libos, eshakka – to'qim – inson o'ziga yarashadigan ish, qiliq qilishi bilan insondir.

Eshakning tanlagani – sho'ra – didsizlik va farosatsizlik tushunchasi.

Eshagidan tushovi (to'qimi) qimmat – o'zidan tashvishi ortiq narsa, buyum.

Eshakka ayil, ho'kizga gavron, otga tushov (yoki jilov) bo'lolmas – noshud, bo'lmas, nokas shaxs.

Qo'chqor bo'laman degan qo'zining manglayi do'ng bo'lar – bo'ladigan bola yoshligidan bilinadi.

Kallapaz sinsa, o'chog'ini oqlamaydi – ishsiz, bekorchi bo'lib qolmoq.

Qo'y ko'rmagan bo'lsa ham, qiy (qumaloq) ko'rgan – badavlat, obro'li xonadonning farzandi, ko'rganning bolasi, ko'zi to'q.

Shishak eding – pishak eding – shishak (uch yashar qo'y) oriq bo'ladi, so'yib yeb bo'lmaydi.

Echki elchi bo'lolmas (yoki echkidan elchi chiqmas), Tulki sovchi bo'lolmas (yoki tulkidan sovchi chiqmas) – engiltak, beqaror, riyokor, tutruqsiz, nobakor, beburd shaxs.

O'zini aka, echkisini taka deydi – xushomadgo'ylik, laganbardorlik.

Bir echki so'ydim, hammasi ichakka chiqdi – sovurilgan boylik, behuda sarflangan mehnat.

Tuya sog‘dim iymadi, peshanamga siymadi (sig‘madi) – omadsizlik, yo‘qotish – o‘lim.

Tuyaday qiz uzatdim-u, tugmaday jez (jaz, jizza) totmadim – ko‘p yaxshiliklar qilib, evaziga yomonlik ko‘rmoq.

Ho‘kizing xo‘ro bo‘ldi – berdi Xudo,

Xotining xo‘ro bo‘ldi – urdi Xudo – boyimoq va kambag‘al bo‘lmoq ramzi.

Ho‘kiz o‘ldi – o‘rtoq ayrildi – biror manfaat asosida qurilgan muomala - munosabatning buzilishi.

Ho‘kizning shoxiga ursang, tanasiga zil ketadi – bolalari, urug‘lariga zug‘um qilish orqali kattalarini ranjitish, azoblash, xo‘rlash.

Silaganni sigir bilmas, siypaganni ho‘kiz bilmas – yaxshilikni bilmaydigan, boshqalarni qadrlay olmaydigan odam.

Ayiq bo‘lsin, ering bo‘lsin,

Ungur bo‘lsin, uying bo‘lsin – dunyodan farzandsiz, yersiz, uy-joysiz, toq o‘tmaslik – Vatanni ulug‘lash g‘oyasi.

Arslonning o‘ligi – sichqonning tirigi – dononing o‘rnini noshud, nodonning bosa olmasligi.

Oting borida yo‘l tani, aqling borida el tani – yoshlikdanoq baxt uchun kurashish, yashash sirlarini sho‘lashtirish – baxt garovi.

Kun hisobini oy olar,

Bedov o‘rnini toy olar – umr o‘tkinchi; qarilar o‘lib, o‘rnini yoshlar oladi.

Ot minsang o‘ylab uzoqni, bilib yur yo‘ldagi tuzoqni – kuchli bo‘lsang ham, ogoh bo‘l! Xavf - xatardan holi emassan.

Tulkining tavbasidan qo‘rq, mug‘ombirning navha (yig‘i)sidan qo‘rq – nobakor, tagi pastlarga ishonma, hazar qil, aks holda hayoting xavf ostida qoladi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Surxondaryo vohasida dehqonchilik va chorvachilikka oid paramiologik birliklarning lingvomadaniy tadqiq etish jarayonida frazeologik birliklarning semantik xususoyatlari va linvomadaniy xususiyatlari voha aholisi maishiy hayotida muhimligi belgilandi.

2. Folklor matnlarida etnografik til birliklarining juda ko'plab namunalari uchraydi, tadqiqotchilar tomonidan ular muayyan tarzda maqol-matal-aforizmlar tizimida o'rganildi. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" da maqol-matal tipidagi paremlar tuzilishiga va semantik xususiyatiga ko'ra tasnif etilgan va "Paremlar badiiy tasvirlash vositalariga ham klassifikatsiya qilinsa ham bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, evfonik vositalariga ko'ra, o'xshatishni(metafora), taqqoslashni(antiteza), paralelizm, anafora, piching, kesatiqni ifodalashiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin.

3. Surxondaryo vohasi dehqonchilik va chorvachilikka oid maqollarning semanik tahlili asosida, voha aholisi nutqi naqadar boy va uzoq tarixga ega ekanligi, u asosida hozirgi zamonaviy yo'nalishlarimiz bo'lgan etnografiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya fanlari rivoji muhim hisoblanadi.

4. Frazeologik birliklarda ma'lum bir xalqning o'ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so'zi bilan yoxud anglatayotgan ma'nosi bilan o'zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milly-madaniy axborot beradi. Demak, har bir tilning frazemalari o'sha til egalarining asrlar mobaynida yaratgan madaniyati, ma'naviyati, tarixi, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qariyb uch ming dan ortiq xalq ro'yxatga olingan va ular turli qit'alarda istiqomat qiladi1 . Bularning barchasini an'analari, urf-odatlar, dunyo qarashlari, madaniyati, shu xalqning, millatning tilida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har bir millat vakili milliyiligini tilida, madaniyatida aks ettiradi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Har bir tilning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ilmiy tahlil qilish, uni keyingi avlodlarga etkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

2. O'zbek va jahon tilshunosligida etnolingvistikaning o'rganilishi borasidagi tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bu boradagi ilmiy ishlarni yuqorida sanab o'tib, bu boradagi ishlar sanoqli va dolzarbligini ko'rsatgan holda, sohaning yanada tadqiq etilishi kerakligini isbotlaydi.

3. Surxondaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarining leksik-semantik tahlili olib borilganda, vohaning boy madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, marosimlarini hozirgacha saqlanib kelinayotganligining guvohi bo'lamiz. Bu etnografizmlarni soha vakillari sifatida tadqiq qilib, o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

4. Voha aholisining dehqonchilik terminlarini keltirish jarayonida, aholi orasida turli oy kunlarining muhim ekanligi yaqqol sezildi. Dehqonlar ekin ekish jarayoni aynan oy kunlariga va ob-havoga qarab ekin ekish va yig'im terim jarayonlarini belgilab olishgan.

5. Dehqonchilik va chorvachilik so'zlarining etimologik kelib chiqishi tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Aholi orasida bu so'zlarning qo'llanishi va qo'shimchalarning qo'shilishi, fonetik va morfologik o'zgarish doirasi o'rganildi. Dehqonchilik terminlari o'z va o'zlashgan qatlam doirasida tadqiq etildi.

6. Surxondaryo boy madaniy - ma'naviy merosi, turli xil qadriyat, urf-odatlarini bilan ajralib turadi. O'ziga xos bu jarayon xalq hayotining ajralmas qismi sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu milliy marosim, urf-odatlar aholi nutqi, muloqot jarayonida ham aks etib, leksik qatlamning boyishi bilan bir qatorda arxaik so'z sifatida unutilib, muloqatdan chiqib ketmoqda. Hozirgi globalashuv davrida tilshunoslar oldida milliy etnografik xarakterdagi predmet, urf-odat, marosimlar bilan bog'liq

leksemalarni jamlash, turli lug‘atlar tuzish, korpuslashtirish, elektron lug‘atlashtirish kabi muammolar turibdi.

7. Paremeologik birliklarda ma’lum bir xalqning o‘ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo‘ladi. Frazologizmlar tarkibidagi biror so‘zi bilan yoxud anglatayotgan ma’nosi bilan o‘zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milliy - madaniy axborot beradi. Demak, har bir tilning frazemalari o‘sha til egalarining asrlar mobaynida yaratgan madaniyati, ma’naviyati, tarixi, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda qariyb uch ming dan ortiq xalq ro‘yxatga olingan va ular turli qit‘alarda istiqomat qiladi. Bularning barchasini an‘analari, urf-odatlar, dunyo qarashlari, madaniyati, shu xalqning, millatning tilida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir millat vakili milliylikini tilida, madaniyatida aks ettiradi.

8. Folklor matnlarida bunday til birliklarining juda ko‘plab namunalari uchraydi, tadqiqotchilar tomonidan ular muayyan tarzda maqol-matal-aforizmlar tizimida o‘rganildi. “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” da maqol - matal tipidagi paremlar tuzilishiga va semantik xususiyatiga ko‘ra tasnif etilgan

9. Dissertatsiya ishida dehqochilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik tahlili, etimologik kelib chiqishi, paremeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilib, o‘rganildi.

10. Bu o‘rganish jarayonlari davom ettirilib etnolingvistika, xususan Surxondaryo aholisining nutqida qo‘llaniladigan urf-odat, marosim bilan bog‘liq birliklar saqlanib, keyingi ilmiy yosh avlodlar bu etnoleksik birliklarni qiziqish bilan tadqiq etib, o‘rganishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз! – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 507 б.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 феврал. № 28 (6722).

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

5. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961;
6. Багаутдинова М.И. Этнографическая лекция башкирского языка. – Уфа: РИО РУНМС, 2002. – С. 11;
7. Бартолд В.В. Сочинения. Том В. – М.: Наука, 1968. – С. 162-163.
8. Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир саволжавоблар. – Тошкент, 1944;
9. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. 226-б.
10. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. 80-81 б;
11. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1975;

12. Копыленко М. М. Основы этнолингвистики. -Алматы: Евразия, 1995. - С.180
13. Лутфиллаева Д. Ассотсиатив тилшунослик назарияси. - Тошкент: Мериюс, 2017. 47 б.
14. Махмараимова Ш.Т. Лингвокултурология. –Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. 26 б.
15. Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлигининг ривожигаги жараёнлар / “Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. –Тошкент, 2019. – 11 б.
16. Менглиев Б. Замонавий ўзбек тили. Морфология, -Тошкент, Мумтоз сўз, 2011. 72 б.
17. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 9 б.
18. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. –Тошкент: Муҳаррир, 2011. 8 б.
19. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. –Тошкент, 1985. 7 б
20. Нечаева О.А. Этнографическая лексика как источник обогащения русского литературного языка ИИ Развитие литературных языков народов Сибири в Советскую эпоху. –Улан-Уде, 1965. – С. 71.
21. Нейматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 45 б
22. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык // К современной стадии узбекского литературного строительства. – Ташкент, 1933;
23. Рустамий С. “Девону луғати-т-турк”даги лингвистик атамалар. – Тошкент, 2009.
24. Саипназаров И. Саипназарова Ф. Маънавиятимизнинг умрбоқий сарчашмалари. –Тошкент: Меҳнат, 1997. 10 б.

25. Содиков Қ. Тарихий лекцикография. -Тошкент, 2011. 56 б.
26. Турсунов С., Пардаев Т. ва б. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. –Тошкент: 2006. 157-199 б.
27. Усмонова Ш. Лингвокултурология. -Тошкент, 2019. 17 б.
28. Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1962;
29. Ўрозов Э. Жанубий Қорақолпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978;
30. Ўринова О.Т., Ўринов Т. Чорвачилик лекцикаси ва ўзбек ономастикаси// Ономастика Узбекистана. -Тошкент, 1989. 178 б
31. Ҳожиев А., Муҳаммаджонова Г., Бегматов Э. ва б. Ўзбек тили лекцикологияси. - Тошкент: Фан, 1981. – 303 б.

III. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar

32. Адилова Г.А. Этнографизмы в языке казахов, проживающих в Каракалпакстане// Вестник Челябинского государственного университета. Фиолология. Искусствоведение. Вып. 62. 2012., № 2. – С. 5-8
33. Бойназаров З. Тарихий-қомусий манбаларда ифодаланган оламнинг лисоний манзараси ва унинг маданият тарихини ўрганишдаги ўрни (Махмуд Кошғарийнинг “Девону луғат-ит турк” асари мисолида) Асадемис Журнал оф Ҳисторй анд Идеа ИССН: 2148-2292. Дергипарк.орг.тр. –Тошкент, 2019. – 2147 б.
34. Джахангиров Г. Узбекский детский игровой фольклор// Фольклор литература и история Востока. Материалы ИИИ всесоюзной тюркологической конференции. – Ташкент, 1984.
35. Исҳоқов Б.Б. Болалар ўйинларининг этнографик хусусиятлари // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. – Тошкент-Наманган, 2007. 249 б.
36. Кайдаров А.Т. Этнолингвистика. Билим жене енбек. - 1985. - № 10. – С. 20.

37. Омонтурдиев А. Лексикографиянинг тилшунослик тараққиётидаги ўрни Филологиянинг долзарб муаммолари илмий-амалий анжуман материаллари (Илмий тезис ва мақолалар тўплами), 2016 йил 18 май, 85-89- бетлар
38. Раҳмонов Б. Сурхондарё чорвачилик лексикасида этнографизмлар. Ўзбек тили ва адабиёти, -Тошкент, 2018, №4, 108-112 б.
39. Тўйчиев Б. Яйлов, қишлоқ, керага ва олтин сўзларининг шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. №3, 68б.
40. Юсупова А.Ш. Этнографическая лексика в татарско-русских и русско-татарских словарях татарского языка XIX века. – Тамбов: Грамота, 2008. № 2 (2). С. 160-164.
41. Курбоназарова Н. Лисоний тизимда этнографик бирликларнинг лингвомаданий аспекти (Сурхондарё тўй маросимлари мисолида). Сўз санъати халқаро журнали, -Тошкент, 2020, №4 3 жилд, 99-104 б; Linguistic Study of some Uzbek ethnographisms expressing Wedding Ceremonies. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020. ISSN: 1475-7192, 3735-3740. 133

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari

42. Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоқлари этнографизмларининг лингвомаданий таҳлили. Фил. фан. бўйича фалс. док. (PhD) дис. – Нукус, 2018.
43. Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. – Термиз, 2021.
44. Аппов А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка. Дисс. кан. фил. наук. – Налчик, 2003.

45. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари. Фил.фан.док.(ДСс). дисс. автореф. – Тошкент, 2020. 40 б.
46. Бердиев Х. Ўзбек тилида ўтовсозлик лекцикаси. фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. автореферати. – Самарқанд, 2017. 47 б. 5.
47. Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лекцикаси: Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1997. – 74 б.;
48. Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
49. Жанпеисов Е. Н. Этнокультурная лексика казахского языка. Автореф. дисс. докт. фил. наук. Алма-Ата, 1990.
50. Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лекцикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида): Фил.фан.канд.дисс. – Тошкент, 1971. 134 б
51. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): фил. фанлари док. дис. автореферати - Тошкент, 2009.
52. Курбаназарова.Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Термиз, 2021. 5 бет
53. Қахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 2009. – 22 б.;
54. Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Фил.фан.бўйича фалс.док. дис. – Тошкент, 2018. – 15 б.; 26
55. Кўзиёев У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар: фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. автореферати. – Фарғона, 2018. – Б. 19.
56. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – 4 б.

57. Омонтурдиев А.Ж. Чорвачиликка оид сўз ва атамаларнинг қисқача тематик евфемик луғати. –Тошкент, 2015. 92 б. 136
58. Омонтурдиев А. Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Илм зиё заковат, 2019. 94 б.
59. Рахимов, С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Термиз: Термиз давлат университети нашриёти, 1995
60. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 1-том, -М.:, “Рус тили” нашриёти, 1981, 632 б.
61. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 2-том, -М.:, “Рус тили” нашриёти, 1981, 717 б
62. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Е.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 2-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 671 б
63. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Е.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 3-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 687 б.
64. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Е.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 4-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 606 б.
65. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Е.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 5-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 591 б.
66. Koshg‘ariy M. Devoni lug‘ati turk. -Toshkent, G‘.G‘ulom, 2017. 482 b
67. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002, 164 б.

V. Elektron resurslar

1. <https://diss.natlib.uz>

2. <https://natlib.uz>
3. library.ziyonet.uz
4. <http://www.google.ru>
5. <https://saarj.com>